

Abdulla QAHHOR

OG’RIQ TISHLAR

To ‘rt pardali komediya

Epilogi bilan

QATNASHUVCHILAR:

N a s i b a — o‘rta maktab o‘quvchisi.

R o h i l a — o‘ning onasi.

M a r a s u l H u z u r j o n o v — Nasibaning eri, tish doktori.

F o t i m a — uning onasi.

Z u h r a — Fotimaning singlisi. Nasiba o‘qiydigan mакtabning qorovuli.

P o‘l a t j o n D o m l a — mакtabning direktori.

N a z i r a }

V y e r a } Nasibaning dugonalari.

A h a d j o n Z a r g a r o v — rayijrokom raisining o‘rinbosari.

O q i l a — uning birinchi xotini.

X u m o r x o n — uning ikkinchi xotini.

R i z a m a t — Xumorxonning tog‘asi, rayijrokomning xo‘jalik mudiri.

Voqeа bizning kunlarda bo‘lib o‘tadi.

BIRINCHI PARDA

BIRINCHI KO’RINISH

Marasul Huzurjonovning o‘z hovlisidagi kabinetи. Kabinetni ko‘cha tomonidagi derazadan ko‘ramiz.

Derazaning ikki tomonida yozuvlar, «Tish doktori. Tish texnigi. Yo‘l muyulishidan». M a r a s u l, bekorchilikdan pashsha tutib o‘tiribdi. Z a r g a r o v kiradi.

Z a r g a r o v (*soatiga qarab*). Marasul, uka, Oqila kelmadi-ku? A, Oqiladan darak yo‘q-ku?

M a r a s u l. Oqilaxon opam... Avtobus soat uchda keladi. Lekin, ertalabki avtobusga chiqolmasam, tushgisiga chiqarman degan edi.

P a u z a

Z a r g a r o v. Hm... Qattiq xafa emasmi?

M a r a s u l. Ustiga xotin olasizu, xafa bo‘lmaydi-mi?

Zargarov. Yo‘q, avzoyidan janjal qiladigan emasmi demoqchiman?

M a r a s u l. Yo‘q... yig‘ladi!

Z a r g a r o v. Yig‘ladi. Xayriyat! Yig‘lagan bo‘lsa janjal qilmaydi... Kimni oldi, deb so‘ramadimi?

M a r a s u l. So‘radi. Xumorxon degan bir juvonni oldilar, dedim.

Z a r g a r o v. Tinch kelib ketadi degin? Shundoq bo‘lsa ham nasihat qilib, etini o‘ldirib, undan keyin meni chaqirgin. Men uyda bo‘laman. (*Chiqmoqchi bo‘ladi*).

Ichkari eshikdan F o t i m a kiradi.

F o t i m a. Hoy, onang aylansin. Marasul... (*Zargarovni ko‘rib*.) Assalomu alaykum... Marasul, ish buziladiganga o‘xshaydi-ku: ZAGSning qog‘ozi bo‘lmasa dom-la-imom nikoh o‘qimas emish.

Z a r g a r o v. Nikoh? Shu gapni mening oldimda gapirmsangiz nima qilar edi!

M a r a s u l (*qabulxona eshigiga qarab-qarab onasiga*). Sekinroq gapirsangiz-chi! (*Zargarovga yolvorib*.) Yana bitta akalik qiling, jon aka! Bir og‘iz aytib qo‘-ying!

Z a r g a r o v. Jinni bo‘ldingmi?.. Endi domla-imom-ga «niqoh o‘qi» deyishim qoldimi?!

M a r a s u l. Yo‘q, ZAGSga aytib qo‘ying deyman! Gapga tushunmaydigan bir odam o‘tiripti... hech ko‘nmaydi!

(*Trubkaga*.) Yigirma bir o‘n, ikki... ZAGSmi? Kim? Siz bilan rayon ijroiya komitetining rais o‘rinbosari o‘rtoq Zargarov gaplashmoqchilar! (*Trubkani Zargarovga beradi*.) ZAGS mudiri!

Z a r g a r o v (*trubkaga*). Him... salom... Doktorning ishini to‘g‘rilab beringlar! Marasul Huzurjonovning ishini... Qiz yosh?!

F o t i m a. Yosh emas, yilma-yiliga o‘n sakkizga kirgan!

M a r a s u l. Yosh emas, o‘n sakkizda, men bilaman deng!

Z a r g a r o v. Yosh emas, o‘n sakkizda, men bilaman deng... yo‘q, men o‘zim bilaman! A? To‘qqizinchi sinfda o‘qisa o‘qiyveradi-da! Men to‘rtinchi sinfda o‘qiganimda yigirma yoshda edim! Menga qarang, javobgarlikdan qo‘rqmang. Har qancha javobgarlik bo‘lsa bizga ortavering... Ko‘taraverib yelkalarimiz qadoq bo‘lib ketgan!

M a r a s u l (*uning yelkasini silaydi*). Yashang!

Z a r g a r o v (*trubkaga*). Menga qarang, uka! Mening bu ishga tayin bo‘lganimga hali yil ham bo‘lgani yo‘q, gapimni qaytarib, bunaqa, obro‘yimni to‘kadigan bo‘lsangiz xafalashib qolamiz! A? Kuyov bilan kelin mening oldimda, hozir boradi. Registratsiya qiling, bo‘lak gap yo‘q! (*Trubkani zarda bilan qo‘yadi*.)

F o t i m a. Xudoyo umringizdan baraka topping! Katta bo‘lish xo‘p yaxshi-da! Kimga nima desa — naqd!

M a r a s u l. Boring, Nasibani maktabidan aytib keling, issig‘ida bora qolaylik!

F o t i m a. Hozir aytib kelaman.

Z a r g a r o v. Lekin men aralashganimni hech kimga og‘zingizdan chiqarmang!

F o t i m a. Xo‘p bo‘ladi. (*Chiqadi*.)

Ko‘kragiga juda ko‘p znachok taqqan R i z a m a t kiradi.

Z a r g a r o v. Ha, Rizamat! Tish og‘rib qoldimi? Bunaqa araq ichishga tish emas, otning taqasi ham chidamaydi.

R i z a m a t. Araq ichmay qo‘yganman, xo‘jayin!

Z a r g a r o v. Shunaqami... (*Ko‘kragini ko‘rsatib*.) Uho‘, taqmaganing choynakning qopqog‘i qolipti xolos-a! (*Chiqadi*.)

R i z a m a t. Menga qara, uka, Rizqixo‘ja ikkoving shu qiliqlaringni menga qilmasalaring nima bo‘lar edi?!

M a r a s u l. Nima qilibmiz?

R i z a m a t. Boshida pisanda qilmovdimmi!... Og‘zingga siqqanini ol, lekin tilla tish deb zanglagan taqa qo‘yma demovdimmi! ...

M a r a s u l. Yo‘g‘e! Sizga shunaqa qilamizmi?- O‘tiring-chi...

R i z a m a t (*kresloga o ‘tiradi*). Kechadan beri o‘xchiy berib o‘lib bo‘ldim-ku.

M a r a s u l. Og‘zingizni oching! Uf, bay-bay, ichingiz-da it o‘lganmi!.. (*Birdan*). E-e-e!.. Attang! Tish qo‘ygan-dan keyin uch kun araq ichmay turing deyish mutlaqo esimdan chiqipti-ya! Qani (*tishini ko ‘rib*). Ha, mana tamom... miokardiodistrafiya!

R i z a m a t (*cho ‘chib*). A?

M a r a s u l. Miokardiodistrafiya!

R i z a m a t. Obbo, xudo urdi, endi nima qilaman! Nega aytmading, aytsang tishimga saqich yopishtirib ichar edim-ku...

M a r a s u l. Mutlaqo esimdan chiqipti! Mayli, ziyoni yo‘q, to‘g‘rilaymiz... Siz hozir Rizqixo‘janing‘ oldiga boring, men telefon qilaman, chorasi ko‘radi. Yo‘lda ichib-netib yurmang tag‘in.

R i z a m a t. Yo‘q-yo‘q, xudo xohlasa yetib borarman. (*Chiqadi*.)

M a r a s u l (*trubkaga*.) O‘n bir, o‘n sakkiz... Rizqi! Rizamat akaga nuqul o‘zidan qo‘yibsan-ku! Borib-borib o‘rtoq Zargarovning qaynag‘asiga shunaqa qilasanmi! Qo‘ysang-chi, og‘zi ko‘karib yotibdi! Endi bir-birimizni aldashimiz qoldimi! Hozir boradi, to‘g‘rilagin! Araqdan miokardiodistrafiya bo‘lipti dedim, sen ham shunaqa degin. (*Turbkani qo ‘yadi*.)

O q i l a kiradi.

E-e, keling, Oqilaxon opa... Qaysi avtobusda kelishingizni bilmaganim uchun kutib olgani chiqolmadim. Yaxshi keldingizmi?..

O q i l a. Shukur... Qanilar, xotin ustiga xotin olgan Ahadjon boy qanilar?

M a r a s u l. Hozir... (*Trubkani oladi*.) Yigirma besh, o‘n besh... Ahadjon aka, keldilar... Tezroq chiqing! (*Trubkani qo ‘yadi*.) Oqilaxon opa, ishning foyda chiqadigan tomonini ko‘zlayverganingiz ma’qul. Janjaldan hech kim baraka topgan emas. Indamay qo‘ya qoling.

O q i l a. Nega indamas ekanman! O‘n yetti yil xizmatini qilib pirovardida ko‘rganim shu bo‘ldimi? Mening yuzimni qilmasa uch bolasining yuzini qilsa bo‘lmasmidi?.. Bundan o‘n yetti yil burun bitta danak eksam hozir soyasida o‘tirib mevasini yer edim. (*Yig ‘laydi*.)

M a r a s u l. Oqilaxon opa... Foyda chiqadigan tomonini ko‘zlayvering.

Z a r g a r o v. Z a r g a r o v. Ha, yaxshimisan... (*Pauza*.) Bolalar yaxshimi?

O q i l a (*ko ‘z yoshini artib*). Yaxshi... Xayriyat, bola-lar esingizda bor ekan!

Z a r g a r o v. Ahmoq bo‘lma!.. O’tir! Endi nima bo‘lib shundoq bo‘lganini aytib o‘tirishga fursatim yo‘q — idorada odamlar meni kutib o‘tiribdi. Bo‘lar ish bo‘ldi, bo‘yovi sindi. Ixtiyor o‘zingda, agar shu gapni ko‘chaga chiqaraman desang, mayli, chiqar, lekin o‘ylab ish qil! O‘zingga qiyin bo‘ladi: uchta bolang bor, qo‘lingda hunaring yo‘q... Yo‘-yo‘q., ko‘chaga chiqarmayman, sabr qilaman desang...

M a r a s u l. Sabrning tubi oltin!

Z a r g a r o v. Balli! Ot aylanib qozig‘ini topadi!

Magazindan kelayotgan Xumorxon deraza oldiga yetganida qo‘lidagi o‘ramni tushirib yuboradi.

X u m o r x o n. Voy! Marasul aka!.. Qarashib yuborsangiz-chi!

M a r a s u l (*Zargarovga*). Xumorxon opam!..

Zargarov (*darrov kresloga o ‘tirib*). Oh! Voh! Sug‘ur! Sug‘ursang-chi!

M a r a s u l (*omburni chog ‘lab*). Hozir... Hozir...

X u m o r x o n. Voy, nima qildi?

O q i l a X u m o r x o n g a tikilganicha qoladi.

M a r a s u l (*Xumorxonga*). Dunyoda tish sug‘urtirishdan yomon azob yo‘q. Siz boravering, ko‘rmay qo‘ya qoling.

X u m o r x o n g a. Og‘ritmay oling! (*Chiqadi*.)

O q i l a uning ketidan qarab, asta o‘rnidan turadi.

Z a r g a r o v (*cho ‘ntagidan pul olib Oqilaga beradi*). Ma, bolalarga biron narsa olib ber. O q i l a. O‘zingiz qachon borasiz? Bolalar dada deb jonimdan bezor qilishyapti! (*Yig‘laydi*.)
Z a r g a r o v. Shu hafta ichi boraman. Bolalarni o‘pib qo‘y! Bor!

O q i l a tovush chiqarmay yig‘laganicha chiqib ketadi.

M a r a s u l. Ahadjon aka, juda qaltis ish-da... bir chuvengiz chiqsa bormi — bu yog‘ingiz raykom, bu yog‘ingiz prokuror-a!

Z a r g a r o v. E, vahima qilaverma!

M a r a s u l. Odam qarigan sayin yoshini xohlar ekan-da!.. Xumorxonni olmasdan shunday o‘ynashib yuraversangiz bo‘lmasmidi?

Z a r g a r o v. O‘ynashib yurib shunaqa bo‘lib qoldi-da! Bir kuni «bo‘yimda bo‘lib qoldi» deb yig‘lab keldi. Yolg‘on ekan-ku, qo‘rqqanimdan, qorni ko‘zimga katta ko‘-rinibdi. Shu!.. «Tog‘am bilib qolsa meni so‘yadi, xotin ustiga bo‘lsa ham ol», deb turib oldi. Tog‘asi boyagi Rizamat, o‘shanda ham menda zavxoz edi, har kuni salomga kiradigan bo‘lib qoldi: har kirganda «so‘yib kelmadimikin» deb yuragim jig‘ etib ketadi, degin!.. Bundan tashqari, o‘ylab qarasam, bizday odamning bisotida bitta kulturniyroq xotin bo‘lsa ham ziyon qilmas ekan. O‘zing o‘ylab ko‘r: xotining bo‘lsa-yu, orada gaplashguday gap bo‘lmasa, biron joyga olib borolmasang, mehmon kelganda dasturxonda ortiqcha bo‘lib o‘tirma!.. Qiyin-da! Bechora Oqila, o‘zi juda halol, mehnatkash, bolalarga juda mehribon, qisqasi bahosi yo‘q xotinu, orqada qolib ketdi!

M a r a s u l. Savodi bor shekilli?

Z a r g a r o v. Bor edi! Bir oz bor... juda yosh olgan edim-da, yettingchimi, sakkizinchimi sinfda o‘qir edi. Keyin o‘qiyolmadi: katta dargoh, bola-chaqa, qozon-tovoq... Qolib ketdi!.. Qo‘y bu gaplarni! Meni yana biron uch ming so‘m qarzdor qilib tur. Xumorxonni kurortga jo‘natmasam bo‘lmaydi. Oqilaning tapti bosilguncha ko‘zdan nariroq turgani ma’qul.

F o t i m a kiradi.

F o t i m a. Nasiba darsda ekan, aytdim, hozir dars tamom bo‘lishi bilan keladi.

M a r a s u l. Pulingiz bormi? Ahadjon akamga yana uch ming so‘m zarur bo‘lib qolibdi.

F o t i m a (*shoshib*). Pulim yo‘q.

M a r a s u l (*qulog ‘iga*). Undoq demang, bering, kerakli odam.

F o t i m a. Hadeb olaveradimi?.. Koshki bersa!.. (*Ichki belbog‘idan pul olib tez sanab beradi*.)
Ming! Ikki ming!.. Uch ming!

Qizlarning ashulasi, N a s i b a ning «Sizlar ketaveringlar, orqalaringdan yetib boraman!» degani eshitiladi. Hamma derazadan qaraydi.

N a s i b a (*kiradi*). Salom...

F o t i m a. Aylanay...

M a r a s u l. Ie, kiyinmasdan kelibsiz-ku!

F o t i m a. Voy, gиргиттон! Kiring! Kiring!

Z a r g a r o v (*Nasibaga zehn solib*). Him... (*Marasulga.*) Formada olib bora ko‘rma, formani ko‘rib ZAGS mudirining jini qo‘zg‘amasin tag‘in.

M a r a s u l. Yo‘-yo‘q! Xudo urdimi!

Z a r g a r o v. Bo‘yi juda past ekan-da!

F o t i m a. Tuflı bor! Poshnasi bir qarichlik tuflimiz bor!

Z a r g a r o v. Xo‘p, boringlar, hashamini keyin qilasizlar. Xo‘p, men ketdim, odamlar kutib qoldi. (*Chiqadi.*)

F o t i m a. Qani, yuring, gиргиттон!

Ikkovi ichkariga kirib ketadi. Marasul ashula aytib asboblarini yig‘ishtiradi va kiyinadi. Ichkaridan Fotima, boshqa ko‘ylak va baland poshna tuflı kiygan N a s i b a zo‘rg‘a yurib chiqadi.

M a r a s u l. Qani, ketdik!

N a s i b a (*Fotimaga*). Tag‘in ZAGSga boramizmi?

F o t i m a. Bu safar beto‘xtov ZAGS qiladi, Ahadjon akangiz buyurdilar.

M a r a s u l. Endi portfelning keragi yo‘q. (*Portfeli olib uloqtiradi.*)

F o t i m a. Boringlar! Ilahi omin!.. Tezroq qaytinglar, oshning guruchini solmay turaman!

M a r a s u l bilan N a s i b a chiqadi. Fotima kresloga o‘tirib yuziga fotiha tortadi.

IKKINCHI KO’RINISH

Rohilaning ko‘rimsizgina uyi. R o h i l a, M a r a s u l. Marasul xunob bo‘lib u yoqdan-bu yoqqa borib kelmoqda.

M a r a s u l. Bunaqa qaysar odam dunyoga kelgan emas! «Axir Ahadjon akam telefon qildilar-ku, yana nima kerak?» desam, «Xudoning o‘zi telefon qilsa ham registratsiya qilmayman» deydn-ya! ..

R o h i l a. Lohavla... Endi nima qilasizlar? .

M a r a s u l. Endi nima qilar edik.... qishloqqa chiqib registratsiya qildirib kelamiz-da... Ahadjon akam xat yozib berdilar... Mana... (*O‘qiydi.*) «Kondan aziz jiyanimiz Nishonboyga yetib ma’lum bo‘lsinki, ushbuni ko‘rsatuvchi Marasul Huzurjonovni tegishli umr yo‘ldoshi o‘rtoq Nasibaxon Asqarova bilan birlikda nikoh daftaringizdan o‘tkazib azbaroyi (*ta‘kidlab*) turmush qilishlari uchun qonuniy hujjatlarini bermog‘ingizni so‘rab qolaman deb *Zargarov*».

R o h i l a. Qachon borasizlar?

M a r a s u l. Hozir boramiz, bordi-keldisi mashina-da bir yarim soatlik yo‘l... Nasiba kelmayaptiku?

R o h i l a. Hayronman... Maktabimga borib kelaman degan edi.

M a r a s u l. Xavotirman-da: bitta-yarimta o‘rtog‘iga aytib qo‘ysa...

R o h i l a. Yo‘g‘-e, aytmaydi!

M a r a s u l. Men borib mashinani olib kelay, unga-cha kelib qolar. Tayyor bo‘lib turinglar. (*Chiqadi.*)

R o h i l a (*o‘zicha*). Shukur, xudoga ming qatla shukur, ko‘zim ochiqligida qizginamning to‘yini ko‘radigan bo‘ldim. (*Garderobni ochib Nasibaning ko‘ylaklarini havas bilan ko‘zdan kechiradi.*) Toleyingdan o‘rgilay, qizim, onang sho‘rlik qiz bo‘lib, kelin bo‘lib hech narsa ko‘rmagan edi, xudoyi taolo hammasini senga nasib qilgan ekan. (*O‘zicha ashula aytadi.*) To‘y muborak bo‘lsin. To‘ylar muborak bo‘lsin...

O‘rgilay Nasibaxon, to‘ylar muborak bo‘lsin...

Maktab formasida N a s i b a ma'yus kiradi.

Keldingmi, qizim...Ha, nima bo'ldi?

N a s i b a (*sekin*). Men yashirolmadim... Domlamga aytib qo'ydim...

R o h i l a (*qo'rqib*). A? Qaysi biriga aytding?!

N a s i b a. Maktabdan chiqib kelayotsam Po'latjon Domla eshikda turgan ekanlar... Hech yashirolmadim! Kabinetlariga olib kirdilar. (*Birdan*.) Aya, qo'ying, shu ishni! Qo'ying, shu ish matabni bitirganidan keyin bo'lsin! Men domlamga va'da berib keldim. Qo'ying, kerakmas!

R o h i l a. Hoy, noshukur! Baxt qushi odamning boshiga bir marta qo'nadi-ya! O'qish hamma vaqg bo'laveradi — magazin to'la kitob!

Po'latjon Domla kiradi.

P o' l a t j o n D o m l a. Mumkinmi?

N a s i b a (*hayron*). Marhamat... Keling, Domla...

R o h i l a (*garang*). Keling, direktor-domlasi...

P o' l a t j o n D o m l a. Salom...

R o h i l a. Qani bu yoqqa... qizim, samovar qaynab turgan edi, olib kir!

P o' l a t j o n D o m l a (*o'tiradi*). Salomat bormisiz?..

R o h i l a. Shukur...

P o' l a t j o n D o m l a. Nasibani uzatishga shoshilibsiz deb eshitdim...

R o h i l a (*gangib*). Yo'q...Kim aytdi?.. Bekor gap! O'limdan xabarim bor, bu gapdan xabarim yo'q...

P o' l a t j o n D o m l a uning ko'ziga qaraydi.

I-ha, esim qursin, durustroq bir joy chiqqan edi, podruchka qilib yursin deb unashtririb qo'yidik, xolos...

P o' l a t j o n D o m l a. Him... «Durustroq joy»? Nimasi durust ekan?

R o h i l a. Durustligi shuki... o'zi doktor! Doktor bo'lganda ham chaqqongina doktor ekan! Dang'illama imoratu, mashina-yu! Sigir, tovuq, g'oz... Bolaginam «tim o'sganiga yarasha xudo peshonasiga baxt bitgan ekan!

P o' l a t j o n D o m l a. Hmm... Har bir ona bolasini yaqqolroq ko'rinish turgan baxtga tomon yo'llashni istaydi, lekin afsuski, baxt, chinakam baxt nima ekani-ni har bir ona bilavermaydi. Azizim! Qizingizning baxtini birovlarining ostonasidan qidirmang! Baxtni birovlarining ostonasidan qidirishning o'zi baxtsizlikning boshi! Nasiba o'z baxtini o'zi, o'z qo'li bilan yaratadi! Baxt xususida uni yanglishtirmang! Yanglishtirmang qiz bechorani!

R o h i l a. Voy, men yanglishtirganim yo'q! O'qigan yigit bo'lgani uchun qo'ldan chiqmasin deb...

P o' l a t j o n D o m l a. O'qigan bo'lsa ham o'qimagan yigitga o'xshaydi, yo'qsa Nasibaning o'qishini ora yo'lda qoldirib maktabidan yulib olmoqchi bo'lmas edi.

R o h i l a. Bilmasam, Nasibaning o'zi tanlagan... yaxshi ko'radi...

P o' l a t j o n D o m l a. Xato! Undoq demang, xato gap! Men Nasiba bilan gaplashib ko'rdim. Bu muhabbat emas, anglashilmovchilik! Siz muhabbat xususida ham uni yanglishtirmang!

R o h i l a. Voy, g'alati gapni gapirasiz-a, domlasi, (*yig'lamsirab*) ona o'z bolasiga yomonlikni ravo ko'radi-mi!..

P o' l a t j o n D o m l a. To'g'ri, hech qachon ravo ko'rmaydi! Qadimgi vaqtida yosh qizlarini xotin ustiga bergen, oltmisht-etmisht yashar chollarning qo'yniga solib qo'ygan ota-onalar ham o'z bolasiga

yomonlikni ravo ko'rgan emas, lekin do'st bo'la turib dushman ishini qilganligi ham haqiqat! Shundoq emasmi?

Samovar ko'tarib N a s i b a kiradi.

(*Nasibaga*.) Biz o'qituvchilar, to'qqiz yil davomida seni ko'zimizning nuri, bag'rimizning harorati bilan parvarish qildik!.. (*Rohilaga*.) Tuvakda bir tup gul o'stirgan odam shu gulning biron yaprog'iga shikast yetsa qanchalik achinadi! Nasiba bir tup gul emas!

R o h i l a. Aytdim-ku, domlasi, sovchi kelavermasin deb unashirib qo'yidik, xolos. To'yni kelasi yil qilsak qilarmiz...

P o' l a t j o n D o m l a. To'y deb Nasibaning o'zi aytdi-ku!

R o h i l a (*kiziga xo'mrayib*). Voy, nega undoq deding? Unashirish nima ekanini bilmaydi-da, domlasi, yosh... (*O'pkalab*.) Voy, domlasi, nahotki shunga ishongan bo'lsangiz! Sizni otasi o'mnida ko'rsagu nahotki sizdan beso'roq ish tutsak... (*Nasibaga*.) Qiz narsa, hech narsadan hech narsa yo'q, to'y deb yurgani uyalmaysanmi! (*Biqinini o'yib oladi*.) Gapir!

N a s i b a. Kechirasiz, domla, men tushunmagan ekanman...

R o h i l a (*soxta kulib*). Buni qarang, unashirishni to'y deb yursa-ya! Qo'ying, domlasi, hozir unashirishdan ham aynidim! Vaqt-soati yetganda bo'lar! Vaqt-soati yetganda kuyovni o'zingiz topasiz! To'yga o'zingiz bosh bo'lasiz!

P o' l a t j o n D o m l a. Ana bu gapingizga ofarin! Ofarin! Endi men ketay bo'lmasa...

R o h i l a. Birpas o'tirsangiz bo'lar edi.

R o h i l a uni kuzatib chiqadi. Nasiba o'ylanib qoladi.

R o h i l a (*kiradi*). Orzu-havas ko'rish peshonamga bitmagan bo'lsa nima ham deyman! (*Yig'lamsirab*.) Mayli, onaning kuchi bolaga yetmaydigan zamon ekan...

N a s i b a (*hayron*). Voy nima deyapsiz o'zingiz??

R o h i l a. Shu gap o'lgurni domlangga aytta qolmasang nima qilar edi! Sizlarga nondan ham domla aziz-da! Mayli, shunday bo'lsa ham sendan roziman... (*Aytib yig' laydi*.) O'g'il ko'rmadimki, go'rimga ikki ketmon tuproq tashlasa... Tovutim chiqqan kuni arvohimga bitta sham yoqsang bas!

M a r a s u l kiradi.

N a s i b a (*yig'lab*). Darrov shunaqa deysiz-da!

M a r a s u l. Uzi nima gap? A?

R o h i l a. Direktor domlasi keldi...

M a r a s u l. A?.. Xo'sh?

R o h i l a. Domlasiga aytibdi...

M a r a s u l (*Nasibaga*). Ie, qanaqasiz o'zingiz, hech kimga og'zingizdan chiqarmang demovdimmi? (*Rohilaga*.) Xo'sh, nima deb kelibdi?

R o h i l a. Nima derdi!

M a r a s u l (*Nasibaga*). Xo'sh, siz nima dedingiz?

N a s i b a. Po'latjon Domla mendan juda qattiq koyindilar.

M a r a s u l. Qiziq ekansiz, direktor bo'lgandan keyin koyiydi-da! Nima, chapak chalsinmi bo'lmasa?

N a s i b a. Yo'q, Domla chinakam kuyayotiptilar, maktabni bitirolmay qoladi deb o'layotiptilar.

M a r a s u l. Ie, axir aytmadingizmi!.. Men jonim-ni, tanimni, butun umrimni ilm yo'liga tikkan bir darvishman-ku, axir! Men nima qilsam ilm uchun, ilm yo'lida qilaman. Kunim bitib o'lsam, o'ligimni ham ilm yo'liga beraman: mayli, studentlar terimga poxol tiqib burchakka qo'yishsin! G'ing demay

turaveraman!.. Men sizga qo‘l cho‘zganimda erkak bo‘lib emas, bir tarbiyachi bo‘lib qo‘l cho‘zdim. Men sizni universitetda o‘qitaman, aspiranturada o‘qitaman! Menga jo‘n xotin kerak emas! Jo‘n xotin kerak bo‘lsa, mana, o‘rtoq Zargarovday odam singlisini bermoqchi bo‘lganda ola qolar edim!

R o h i l a (*Nasibaga*). Eshitayotibsanmi?

M a r a s u l. Men sizni doktor qilaman, akademik qilaman!

N a s i b a (*kulimsirab*). Rostmi?..

M a r a s u l. Men sizga qachon yolg‘on gapirgan edim?

F o t i m a kiradi.

F o t i m a. Hoy, muncha ivirsidilaring! Mashinada o‘tirib ko‘zim pinakka ketibdi. Bo‘la qolsalaring-chi!..

R o h i l a (*Nasibaga ko‘ylak berib*). Yur tezroq, kiyingin, qizim!

N a s i b a. Aya, axir, Po‘latjon Domla...

R o h i l a. Gapni ko‘paytirma! (*Nasibani qo‘yarda-qo‘ymay yetaklab olib chiqadi*.)

M a r a s u l (*Fotimaga*). To‘yni tezroq o‘tkazmasak maktab ishni chatoq qiladiganga o‘xshaydi.

F o t i m a. Albatta! Mening nima deb jonim halak! Qachongacha o‘rgataman!..

Yasangan Nasiba, Rohila kiradi.

M a r a s u l. Qani, ketdik! R o h i l a. Ketdik!

N a s i b a. Aya, domlamga nima dedingiz?..

M a r a s u l. Yuring! Yuring! (*Nasibani qo‘ltiqlab olib yetaklaydi*.)

H a m m a chiqadi.

Parda

IKKINCHI PARDA

UCHINCHI KO‘RINISH

Katta did va zo‘r havas bilan solingen imorat. Yosh meva daraxtlari. Mayning o‘rtalari.
Nasiba, Vera, Nazira.

N a s i b a.

*Kavkaz pelo mnoyu. Odin v vishine
Stoyu nad snegami u kraya stremniny
Orel, s otдалennoy podnyavshis vershiny,
Parit nepodvijno so mnoy naravne.*

V ye r a. Parit emas, parit!

N a s i b a. ... Parit nepodvijno so mnoy naravne... Kislovodsk! Kazbek! Ararat!..

N a z i r a. Kislovodsk qayoqda-yu, Qazbek bnlan Ararat qayoqda! To‘qqizinchi sinfda o‘qigan odam geografiyani bir oz bilishi kerakdir?

V ye r a. Qizishma, Nazira.

N a s i b a (*kuladi, Nazirani quchoqlaydi*). O‘zingning ham qavasing kelayotipti, o‘rtoqjon!.. Voy!.. O‘ylasam yuragim hovliqib ketadi!.. Shularning hammasini o‘z ko‘zim bilan ko‘raman-a!

N a z i r a. O’qish-chi?! O’qishni kimning ko‘zi bilan ko‘rasan? Imtihonlar-chi?

N a s i b a. Imtihon? Imtihonni kuzda beraman. Marasul akam shunaqa deyaptilar!

N a z i r a. Hayronman! Men senga hayronman, Nasiba! Nahotki odam hech keragi yo‘q kurortni deb imtihonni kuzga qo‘ysa!

V ye r a. Bari bir maktab javob bermaydi.

N a s i b a. Javob bergen bo‘lsa-chi?

V ye r a. Hech-da.

N a s i b a. Marasul akam «Nasiba hozir kurortga bormasa bo‘lmaydi» deb poliklinikadan spravka eltib berdilar.

V ye r a. Hech kasaling yo‘q-ku!

N a s i b a. Voy, kasalim bor;..

N a z i r a (*tajang*). Qaering qiyshayibdi?

V ye r a. Nazira, og‘ir bo‘l!

N a s i b a (*zo‘r tashvish bilan*). Marasul akam mana bu yerimga ... yo‘q, mana bu yerimga qulog solib ko‘rib, (*bosh chayqaydi*) munday-munday qildilar.

N a z i r a. Boshini munday-munday qilgan Marasul akangu spravkani poliklinika berdimi?

V ye r a. Nazira, hovliqmagin!

N a s i b a. Marasul akam kasalimni aytgandilar-da!

V ye r a. Hech qanaqa kasaling yo‘q! Qo‘y bu gaplarni! Biz yordam beraylik, imtihonga tayyorlan.

N a s i b a. Voy, muncha! Imtihonni bersam bo‘ldimi? Kuzda beraman-da! Hozir qandoq qilaman... Poezdga bilet olib qo‘yan bo‘lsak, poezd uch soatdan keyin ketsa... O’ninchini kechki maktabda bitiraman! Bitirmasdan ilojim bormi, yanagi yilga Moskvaga ketadigan bo‘lib turibmiz. Marasul akamni Moskvaga ishga chaqirishyapti.

N a z i r a. Men ham «Moskvada tish doktori kamchil emish» deb eshitdim!

V ye r a (*achnig‘i kelib*). Nazira, qo‘ysang-chi!

N a s i b a. Voy, ishonmaydi-ya! Xat kelibdi! Ketamiz! Marasul akam «seni Lomonosov nomidati universitetga kirgizib qo‘yaman», deyaptilar, yigirma beshinchi etajda o‘qiyan! U kishi ishlaydi, men o‘qiyan. Universitetni bitiraman, kandidat, doktor bo‘laman! (*Kerilib*) Fizika-matematika fanlari doktori, professor Nasibaxon Karimovna Asqarova! Yo‘q-yo‘q, Huzurjonova!

N a z i r a. Sal tushing!

N a s i b a. Bo‘lolmaymanmi?

N a z i r a. Bo‘lolmaysan!

N a s i b a. Bo‘lolmaymanmi, bo‘lolmaymanmi?

N a z i r a. Bo‘lolmaysan!

N a s i b a (*uni yikitib minib oladi*). Bo‘lolmayman-mi?

N a z i r a. Tavba qildim! Bo‘lasan... bo‘lasan...

Kulgi. Jimlik.

V ye r a (*«Shkolniy vals»ni boshlaydi*).

Davno, druzya veselye,

Prostilis my so shkoloyu...

Nazira bilan Nasiba qo‘shiladi.

*No kajdyu god my svoy prixodim klass,
V sadu beryozki s klyonami,*

I shkolnyiy vals opyat zvuchit dlya nas.

Syuda myi rebyatishkami

S penalami i knijkami...

Nasiba sukutga ketadi. Buni Vera payqab Nazirani turtadi.

N a z i r a (*o‘ychan*).

Davno, druzya vesyolie,
Prostilis mn so shkoloyu...

V ye r a. Har qalay erga tekkaning bemavrid, bemaslahat ish bo‘ldi! Nasiba. Maktab bilganida to‘yingni bir yil keyinga qo‘ydirar edi. Yashirding. Hamma sendan xafa!

N a s i b a. Uf... Muhabbat nima ekanini boshingga tushganda bilasan!

N a z i r a. Yana bir yil sabr qilganingda muhabbatingga kuya tusharmidi?

Vera (*Naziraga*). Og‘ir bo‘lsang-chi, axir!

N a s i b a. Yana bir yil sabr qilsam bo‘lar edi, lekin bir tomondan, ayam... «Ko‘zim ochiqligida to‘yingni ko‘ray» deb turib oldilar, bir tomonda... (*iftixor bilan*) o‘rtoq Zargarov oraga tushdilar. Undan keyin Marasul akam har kuni maktabga ketishimda ham, kelishimda ham, gul ko‘tarib ko‘chamizning boshida turar edilar.

N a z i r a. Menga qara, har kuni gul ko‘tarib turganiga rahming keldimi, yo chinakam yaxshi ko‘rasanmi?

N a s i b a. Bilmasam... (*o‘ychan*). Ba’zan allaqanday bo‘lib ketaman.... Ko‘nglim g‘ash.... To‘qqiz yil o‘qigan maktabim, mushtdayligimdan birga o‘sgan o‘rtoqlarim.., Hammasiga, begonaday bo‘lib qoldim! Endi kechki maktabda o‘qiyan... Xotinlar.... Qiziq-a, men endi xotin!.. Marasul akam mening erim! Er! «Erim» degan gapga hech ko‘nikolmayapman! Ko‘nikib ketarman-a, qizlar! Bir odam senga joni jahonini bersa-yu, sendan hech narsani talab qilmasa, shu odamning oti er bo‘lsa, bunga ko‘nikmasdan nimaga ko‘nikadi kishi! Qaranglar, shu hovli-joy, mana shu daraxtlar, kursi, so‘ri —hammasi meniki! (*Baxtiyor*.) Erim meni bugun Kislovodskka olib ketadi!

V ye r a. Butunlay o‘zgaribsan!

F o t i m a (*tovushi*), Hoy, Asqad, juvonmarg, qo‘yasانmi, yo‘qmi?!

N a s i b a. Qaynanam...

F o t i m a chimmatsiz paranji yopinib, ikkita bidon ko‘tarib kiradi.

F o t i m a. Kelinposhsha! (*Mexmonlarni ko‘rib*.) Ie! Kelinglar, esonmisiz... Omonmisiz... (*Nasibaga*.) Kelin- poshsha, tovuqlaringizga moyak qo‘ydingizmi?

N a s i b a. Ha, moyak qo‘yganman.

F o t i m a. Chipor tovug‘ingizga-chi?

N a s i b a. Unga ham qo‘ydim.

F o t i m a. Qora tovug‘ingiz ham qa-qalab yuribdi, (*Tovuqning yurishini qilib ko‘rsatadi*.) Qa-qa-qoq.., (*Bir chekkada turgan shisha bilan paxtani ko‘rib qola-di*.) Ha, aytganday (*shisha bilan paxtani oladi*), sigiringizning qanshariga temiro‘tki chiqibdi, namakob surkadim, nos surkadim — bo‘lmadi, pichoq bilan qirib, kirasin surkash kerakmish.

Nazira piq etib kulib yuboradi. Vera uni turtadi.

Qiray desam, qarilik qursin ko‘zim o‘tmadi. Sizning ko‘zingiz o‘tkirroq... Mana, uchovlaring birpasda qilasizlar...

Nazira tovush chiqarmay qotib-qogib kuladi. Vera uni turtadi, gavdasi bilan Fotimaning naearidan to‘sadi.

N a s i b a (*xijolat*). Mol doktoriga qaratamiz, aya, doktor davo qiladi!

F o t i m a. Avval bir surkab ko‘ringlar, bo‘lmasa undan keyin do‘xtirga qarataylik. (*Shisha bilan paxtani unga beradi*.)

N a s i b a. Xo‘p-xo‘p... O’tiring...

F o t i m a. yo‘-yo‘-yo‘q, bemalol yozilishib o‘tiringlar! Yomon ko‘rganim yoshlarning suhbatiga qarilarning suqilishi. Ayniqsa, qaynana...

N a s i b a. Unaqa demang! O’tiring!

F o t i m a. Yoshligimda qaynanaing jabrini torta-torta jonomda jon qolgan emas. Mana shu Marasulni tuqqanimda: «Shu o‘g‘lim katta bo‘lsa, xotin olsa keli-nimning hech ishiga aralashmayman», deb nnyat qilgan-man. Xudo niyatimga yetkazdi.

G’ozlar tovushi.

Hoy, Asqad o‘lgur! (*Ko‘cha eshigiga tomon yuguradi*.) N a s i b a undan ilgari chiqib ketadi.

N a s i b a (*tovushi*). Hoy, Asqad!

F o t i m a (*ko‘chaga*). Kelinposhsha, hu, ana u eshikka kirdi! Ha, juvonmarg!.. (*Qaytadi*.)

V ye r a (*Naziraga*, «*sen tek tur*», *degan ma’noda ishora qilib*). Xola, Nasiba o‘qishini qo‘yib kurortga ketarmish... Chakki qilayotipti. Siz ham ayting...

N a z i r a. O‘g‘lingizga ayting, olib ketmasinlar, Imtihoni bor.

F o t i m a (*bidonlarini olib*). Yo‘-yo‘q! Men niyat qilganman. Ixtiyor o‘zida. Hukumatning davrida hamma ozod, ozod bo‘lgandan keyin borsa ham o‘zi biladi, bormasa ham o‘zi biladi. (*Chiqadi*.)

Mashina gudogi. Nasiba bilan Marasul kiradi.

M a r a s u l. Salom qizlar!.. Nasibaxon, pulingizdan bir ming besh yuz so‘m olib chiqiig, men sizga bir narsa olib kelaman.

N a s i b a uyga qirib ketadi.

Xo‘sh, qizlar, nima gap?

V ye r a. Bizni komsomol tashkiloti yubordi.

N a z i r a. Nasiba imtihonlarini bermasdan kurortga ketar emish! Bu qanaqasi?..

V ye r a. (*Naziran turtib*). Komsomol tashkiloti bizni xabar olgani, bilgani yubordi.

M a r a s u l (*elkasini qisib*). Men bu to‘g‘rida direktsiyaga spravka eltib bergen edim-ku?

N a z i r a. Kurortga hozir borishi zarurmi?

Marasul. Zarur! Doktorlar kasali juda og‘ir deyishayotipti. Miokardiodistrafiya!

N a z i r a. (*Veraga bir qarab*). Voy, Nasibani o‘zingiz ko‘rbsiz-ku! Poliklinika sizning gapingizga qarab spravka beribди-ku!

M a r a s u l. To‘g‘ri, o‘zim ko‘rdim! Nima, men doktor emasmanmi? Jim! Nasiba chiqayotipti. Men kasalini o‘ziga aytganim yo‘q. O‘zi bilmasligi kerak!

N a s i b a uydan juda ko‘p pul olib chiqadi va o‘rtoqlarining ko‘z oldida huzur qilib sanab beradi.

N a s i b a. Mana... Bir! Ikki...

M a r a s u l. Kurortga borishdan maqsad davolanish bo‘lsa, davolanishdan maqsad — o‘qish! A’lo o‘qish! Komsomol tashkiloti bilan direktsiyaga mening nomimdan aytinglar... Men oliy ma’lumotli

odamman, doktorman! Nasiba kuzda hamma fandan a’loga topshirmasa yo‘l qo‘ymayman! Nasiba meni yerga qaratmaydi,

N a s i b a. Albatta!.. Ellik sakkiz, ellik to‘qqiz, oltmis!.. Darrov kelasiz-a! Tag‘in poezdga kechikmaylik!

M a r a s u l. Men besh minutda yetib kelaman. O’rtoqlaringizga yaxshi plastinkalardan qo‘yib bering.

N a z i r a. Yo‘q, biz ham ketamiz!

M a r a s u l. Shunaqami... Mashinaga chiqinglar bo‘lmasa.

N a s i b a (*erkalanib*). Marasul aka, mashinani ko‘chaning boshigacha haydar chiqay...

M a r a s u l (*kulib, qizlarga*). Nasiba mashina haydashni o‘rganayotipti. (*Nasibaga*) Xo‘p, lekin katta ko‘chaga chiqmaysiz!

N a s i b a (*sevinib*) Xo‘p! Ko‘chaning boshigacha...

Hamma chiqadi. Motor gurillaydi. Mashina gudogi. G’ozlar tovushi. Mashina jo‘naydi. Paqir ko‘tarib Fotima kiradi. Telefon jiringlaydi.

F o t i m a (*trubkani olib*), Ha! Marasul yo‘q. Kimsiz? Direktor? Voy, bolam, qaysi magazinning direktorisiz? A? Maktab direktori? Hmm... Ha, ketishayotip-ti. A? Ixtiyor Nasibaning o‘zida. Voy, o‘zingiz o‘qigan odam bo‘la turib ozodlikka to‘sqinlik qilasizmi?

Ko‘chadan g‘ozlar tovushi eshitiladi.

Qo‘ying, qo‘ying, gapni cho‘zmang! Vaqtim yo‘q! (*Trubkani qo‘yib ko‘chaga qaraydi. Xumorxon kiradi*.) Hoy, Asqad, qo‘yananmi, yo‘qmi? Birovning g‘ozini quvlayverasanmi?

X u m o r x o n. Kim, xola?

Fotima. Anavi To‘laganning erkatoyi! Minaman deb g‘ozlarni quvlagani quvlagan.

X u m o r x o n. Bizning telefon yana buzilib qoldi. Er bo‘lmay qora yer bo‘lgur, shuni yaxshiroq tuzattirib qo‘ymaydi! Mumkinmi?..

F o t i m a. Bemalol... (*Paqirni qo‘yib, uyga kiradi*.)

Xumorxon (*trubkaga*). Yigirma to‘rt — yetmish to‘rt... Salom. Xumorxonman. Ahadjon akam bormilar? Shunaqami... Rahmat... Kechirasiz... Yigirma—to‘qson sakkiz... O’rtoq Zargarov bormilar? Qayoqqa? Rahmat. Kechirasiz... Yigirma uch — sakson to‘qqiz. O’rtoq Zargarovning oilalari bo‘lamon... A? Qayoqqa ketdi ekan? Aytmadimi? Rahmat. Kechirasiz. (*Trubkani qattiq qo‘yib o‘rnidan turadi*.)

N a s i b a. (*yugurib kiradi*). Du-du-dud!.. Radiator... Akkumulyator! Keling, Xumorxon opa...

F o t i m a uydan chiqadi.

F o t i m a. Kelinpushsha! Sigiringizni sog‘ib olasizmi?.. (*Kunga qarab*.) Men namozni o‘qib olay.

N a s i b a paqirni olib o‘ynab chiqib ketadi. Telefon jiringlaydi.

Kim? A? Hozir. (*Chiqmoqchi bo‘lgan Xumorxonga*.) Mang! Eringiz. (*Joynamozni olib namozini boshlaydi*.)

Xumorxon (*trubkaga*). Labbay! Ahadjon aka! Qaysi go‘rda yuribsiz? Telefon qilmagan joyim qolmadi! Nima bo‘ldi putyovka. (*Ta‘bi xira bo‘lib*.) Voy kurortga ketayotibman deb hammaga ovoza qilib qo‘yganidandan keyin yo‘q deysizmi? Kerakmas, putyovka topib kelmasangiz uyga kirgizmayman! (*Trubkani qo‘yadi, namoz o‘qiyotgan Fotimani chetlab o‘z hovlisiga chiqib ketadi*.)

Mashina gudogi. Bir qo‘lida hassa bilan shlyapa, bir qo‘lida o‘ram, Marasul kiradi. U oyok uchida yurib uyga kirib ketayotganida F o t i m a unga ko‘z qiri bilan qaraydi.

F o t i m a (*sajdaga ketayotib*). Shoshma!

Marasul bir to‘xtab yana yo‘lda davom etmoqchi bo‘ladi.

Shoshma deyman. U nima?

M a r a s u l. Xitoyi xalat.

F o t i m a. Bu yoqqa ber! (*Xalatni ochib ko ‘radi’*) Qachon aqling kiradi!

M a r a s u l. Hmm...

Fotima. (*Fotihaga qo ‘l ochib*.) Nima qilasan lattani? yo‘qot! Ilm boshqa ekanu, aql boshqa ekan-da!

M a r a s u l. Keliningiz bir xursand bo‘lsin degan edim-da!

F o t i m a (*yuziga fotiha tortib*). Xotinim xursand bo‘lsin desang tilla uzuk olib ber, tilla bilaguzuk, qo‘sh-qo‘sh tillaga soat olib ber! Xotining ham xursand, o‘zingning ham bir kuningga yaraydi. O‘zingni tillaga ur, onang aylansin Marasul, o‘zingni tillaga ur!

M a r a s u l. Endi buni magazin qaytib olmaydi-da... (*Eslab*.) Xumorxon shunaqa narsalarga o‘ch, o‘shanga oshiramiz.

F o t i m a. Oshir!.. Maktabdan telefon qildi. Yana o‘sha gap! Tezroq jo‘nay qolinglar!

M a r a s u l. Chatoq bo‘layotipti-da. Borib-borib menga gap tegmasa edi deyman-da...

F o t i m a. Nasibaning o‘zi o‘qishni xohlamasa hech kimga gap tegmaydi. Ozodlikka chiqqandan keyin xohlasa o‘qiydi, xohlamasa qatiq sotadi. Olib ketaver. Shuncha o‘qipti — bas, bundan ortiq o‘qisa tepangga chiqib ketadi. Ishlaysan, pul topasan — rohatini ko‘r. Mening ham ilgarigi quvvatim qolgan emas. Men ham dunyoga umid bilan kelganman, oyog‘imni uzatib o‘tirarmikinman deb o‘g‘il o‘stirganman.

M a r a s u l. To‘g‘ri-yu, lekin bu yoqda maktab, bu yoqda komsomol...

F o t i m a. Bordi-keldilaringga ikki oy ketar ekan. Ikki oygacha ehe! Esidan chiqadi-ketadi.

Fartuk tutib olgan Nasiba kiradi.

N a s i b a. Aya, sutni nima qilay?

F o t i m a. O‘zim saranjomlayman. (*Chiqadi*.) Nasiba. Nima olib keldingiz, Marasul aka? Marasul (*xalatni beradi*). Lekin o‘zimga yoqmay turipti. Pastrog‘i ekan.

N a s i b a. Kiyib ko‘ray-chi!

M a r a s u l. Arzimaydi.

N a s i b a uning ketidan M a r a s u l uyga kiradi.

Z a r g a r o v, Xumorxon, bularning ketidan R i z a m a t hov-
liqib kirishadi va telefon tomon borishadi.

Z a r g a r o v (*Rizamatga*). Boyatdan beri aytmaysan-mi!..

X u m o r x o n. Sizning putyovka topolmasligingizni qayoqdan bilsin!

Z a r g a r o v. Nima, kim deding?

R i z a m a t. «Inobat» artelining raisi Rahimov Malik.

Z a r g a r o v (*trubkaga*). «Inobat» arteli... A? Band? Obbo!.. (*Trubkani qo ‘yadi*.) Putyovka oldim, deb o‘zi aytdimi?

R i z a m a t. O‘zi aytgani yo‘q, men so‘radim... Og‘aynim...

Z a r g a r o v. Oldim, dedimi?

R i z a m a t. Ha, kecha olgan ekan?

Z a r g a r o v (*trubkaga*). «Inobat» arteli... (*yo ‘g ‘onroq tovush bilan*.) Raisi bormi? Ie, salom... Zargarovman. Rahmat... Ishlar qalay? Durust, durust...

X u m o r x o n. Gapni cho‘zmang!

Z a r g a r o v. Bizning boshimizga bir mushkul ish tushib qoldi-da. Umr yo‘ldoshimiz qattiq betob...

X u m o r x o n. Bunaqa gaplarni sizga kim qo‘yipti, xotinim deyavering!

Z a r g a r o v. Ha, xotinim... Kislovodskga bir dona putyovka olgan ekansiz, shuni bizga bersangiz, biz sizga yanagi oyga to‘g‘rilaşak, qalay bo‘ladi? Odam yuboraymi?, Rahmat. (*Trubkani qo‘yadi.*)

X u m o r x o n. Bo‘ldimi?

Z a r g a r o v. Albatta! Odamni shoshirib yuborasiz-a!.. Rizamat, bor, putyovkani olib kel! Mashinada borib kela qol.

R i z a m a t chiqib ketadi.

Lekin shunaqa odamlarga telefon qilish yaxshi emas, jonim! Bunaqada obro‘ qoladimi?

X u m o r x o n. Obro‘? Obro‘ bormi sizda? Bitta putyovkani tog‘am aralashmaguncha eplolmadingiz-ku! Obro‘ emish! Obro‘ desangiz xotiningizning tog‘asi zavxoz bo‘lib yurarmidi!

Z a r g a r o v. Ichmasa ekan, boshqa ishga qo‘ysam! Araqqa non to‘g‘rab yeysi!

X u m o r x o n. Bo‘ldi, bo‘ldi, pul toping!

M a r a s u l bilan N a s i b a uydan chiqadi.

N a s i b a. Xumorxon opa, bu yoqqa keling-a! Sizga bir narsa ko‘rsataman! (*Xumorxon bilan uyga kirib ketadi.*)

M a r a s u l. Keling, Ahadjon aka!.. Marhamat!

Z a r g a r o v. Putyovka masalasi hal, endi biletga, yo‘lga bir oz pul bo‘lsa... Yana biron uch ming qarzdor qilib turasan, uka.

M a r a s u l. Jonim bilan.

F o t i m a paranji yopinib bidon ko‘tarib kiradi va ko‘cha eshigi tomon yo‘naladi.

Aya, pulingiz bormi?

F o t i m a (*Zargarovga ko‘z qirini tashlab*). Yo‘q edi-ku.

M a r a s u l. Qarang, bordir, Ahadjon akamga uch ming zarur bo‘lib qolibdi.

F o t i m a (*o‘zicha*). Obbo!.. (*Zargarovga*) Ozroq bo‘maydimi? Ozroq olsangiz berishingiz oson bo‘lar edi (*beradi*). Mana, sanab oling (*inqillab chiqib ketadi*).

Zargarov (*pulni yoniga solib*). Rahmat! Zap onang bor-da!.. Bir tiyinini qirg‘ich bilan qirib oladi, kishi-ya! Men borib bilet olib kelay bo‘lmasa...

M a r a s u l. Men mashinani poliklinikaning garajiga qo‘ymoqchi edim, yuring...

I k k o v i chiqib ketmoqchi bo‘lib turganda N a s i b a, xalat kiygan Xumorxon uydan chiqadi.

M a r a s u l. O‘h-o‘h-o‘h!.. Juda yarashipti-ku, Xumorxon!

N a s i b a. Menga yarashmaganmidi?

M a r a s u l. Sizga ham yarashdi-yu, jizmi kattaroq!..

X u m o r x o n (*Zargarovga*). Gapisangiz-chi!

Z a r g a r o v. Durust, durust.

X u m o r x o n (*Nasibaga*). Opasi o‘rgilsin, menga bering, men sizga boshqa narsa olib beraman.

M a r a s u l. Nasiba sizdan bitta emas, o‘nta xalatni ham ayamaydi. (*Ko‘z qisadi.*)

N a s i b a. Mayli...

X u m o r x o n (*Zargarovga*). Pulingiz bormi?

Z a r g a r o v. Beraman, beraman. (*Marasulga*) Keyin surishamiz.

M a r a s u l. Mayli-mayli... (*O‘zicha*) Bunga ham kuydik...

R i z a m a t kiradi.

R i z a m a t. Mana, putyovkani olib keldim.

Xumorxon (*sevinib*). Voy!

Z a r g a r o v. Yaxshi. (*Marasul bilan birga chikib ketadi*.)

X u m o r x o n. Yuring, tog‘a!

Ikkovi chiqib ketadi. Nasiba xomush bo‘lib o‘tirib qoladi. Chimmatsiz paranji yopingan R o h i l a kiradi. Nasiba berkina di. R o h i l a bir necha marta chaqirgandan keyin orqasidan kelib quchoqlaydi, Rohila cho‘chib ketadi.

N a s i b a. Shunaqa, birdan ketadigan bo‘lib qoldik, aya!

R o h i l a. Oy borib, omon kelinglar!

N a s i b a (*baxtiyor*). Kavkaz! Pushkin... Lermontov... Siz baribir tushunmaysiz!... (*Onasini tantsaga olib tushadi*.)

R o h i l a. Voy, voy!.. Qo‘y, boshim aylanib ketdi. (*Ziynat asboblarini xavas bilan ko‘zdan kechirib*.) Buyursin! Nasib qilsin!.. Yangi kelin bo‘lib tushgan kun-larim dadang rahmatlik bitta qalay uzuk olib kelgan-da qancha suyunibman!.. Jon qizim, dunyoda davlatdan katta baxt yo‘q! Davlat bir marta keladi, kelganda mahkam ushslash kerak! Eringni izzat qil! Qaynanangni izzat qil! Ertalab salomga chiqayotibsizmi?

N a s i b a. E!..

R o h i l a. Undoq dema, qizim! Gapimga kirib kam bo‘ldingmi? (*Hovlini ko‘rsatib*.) Mana!

Z u h r a kiradi.

Z u h r a. Salom!

N a s i b a yugurib borib uni quchoqlaydi.

R o h i l a. Voy, Zuhrabuvi! Esonmisiz... Eson-omon keldingizmi... Qachon keldingiz?

Z u h r a. Kecha... To‘ylar qulluq bo‘lsin... Qulluq bo‘lsin, qizim.

N a s i b a. Rahmat.

R o h i l a. To‘yga kelmadingiz... O‘zi ham birdan bo‘lib ko‘p odam bilmay qoldi!.. Xo‘p tomosha qilib keldingizmi? Semiribsiz! Dom otdix yoqipti...

N a s i b a (*xursand*). Biz kurortga ketayotibmiz!

Z u h r a. Eshiddim...

R o h i l a. Bolaginamning suyunganini ko‘ring.

N a s i b a (*xursand*). Biz kurortga ketayotibmiz!

Z u h r a. Pul yaxshi narsa, lekin bosib olgan odamga yaxshi. Pulki kishini xazonday uchirib yurdimi, unday puldan qo‘rqilik! . N a s i b a. Kimni uchiripti?

Z u h r a. Mana, seni! Seni uchirib kurortga olib ketayotipti.

R oh i l a. Yomonmi?

Z u h r a. Maktabidan yulib olib ketayotipti-da.

R o h i l a. Aylanay, Zuhrabuvi, hozir hamma ham erga tekkuncha o‘qiydi.

Z u h r a. «Kim tabib, boshidan o‘tgan tabib» deyishar edi, ilmsizlik boshingizdan o‘ta turib shu gapni gapirasiz-a?

N a s i b a (*achchig‘i kelib, onasiga*). O‘qiyman!

R o h i l a. Ha, ha, o‘qiydi.

M a r a s u l kiradi.

Z u h r a. Maktabda achinmagan odam yo‘q.

M a r a s u l. E, keling, xola, keling! O‘ynab-kulib keldingizmi... Nasibaxon, ayam qanilar?

N a s i b a. Hozir keladilar.

M a r a s u l (*Roxilani ko‘rib*). E-e!.. Keling...

R o h i l a. Yaxshimisiz, bolam...

M a r a s u l. Nasibaxon, oshni tezroq yesak. Choyni shoshmasdan ichib poezdga chiqsak deyman-da.

N a s i b a. Aya, hammasi tayyor, o‘choqqa o‘t yoqib yuboring.

R o h i l a. Xo‘p, ko‘plashib birpasda qilamiz. (*Chiqadi.*)

N a s i b a. Men hozir guruch olib chiqaman. (*Uyga kiradi.*)

Z u h r a. Yosh qizni olganing bir sari, endi buni o‘qishidan qo‘yib kurortga olib ketayotganining nimasi?

M a r a s u l (*achchig‘i kelib*). Shu ishga aralashmagan matabning qorovuli qolgan edi, xolos! (*Chimoqchi bo‘ladi.*)

Z u h r a (*etagidan tortib*). Shoshma.

N a s i b a uydan guruch olib chiqib, oshxonaga o‘tib ketadi.

M a r a s u l (*ketidan*). Nasibaxon! (*Chiqmoqchi bo‘ladi.*)

Z u h r a (*etagidan tortib*). Shoshma!

R o h i l a (*tovushi*). Zuhrabuvi!

Z u h r a. Labbay! Hozir...

M a r a s u l. Boring! Ayam yo‘q ekanlar, qarashing.., Lekin zakunchililingizni qo‘ying! Xafa bo‘laman!

Z u h r a. Agar shuni o‘qishidan qo‘yib kurortga olib ketadigan bo‘lsang, sendaqa jiyanim yo‘q!

M a r a s u l. Xo‘p, xo‘p, boring!

Z u h r a chiqadi. N a s i b a kiradi.

N a s i b a. Marasul aka... Xalatni o‘zim kiyaman. (*Erkalanib.*) Qerakmas, qaytib bersin!

M a r a s u l. Avval shuki, men magazinda yaxshi qaramabman, kiyilgan ekan, undan keyin, rangi menga yoqmadni. Sizga boshqasini olib beraman... Qo‘lingizni bering. (*Tilla soat ko‘rsatadi.*)

N a s i b a. Voy! Tilla soatim bor edi-ku!

M a r a s u l. Ikovimiz o‘tqazadigan oltin umrning oltin minutlarini har qancha oltin soat sanasa oz!

N a s i b a. Rahmat!

M a r a s u l. Ha, aytganday, yangi mashinaning ham yo‘lini qilib qo‘ydim. Qaytib kelganimizdan keyin yangisini olamiz!

N a s i b a (*sevinib*). Voy. (*Uzini Marasulning quchog‘iga otadi.*)

Marasul uni o‘pmoqchi bo‘lganda ko‘chada militsioner hushtak chaladi. Ko‘cha devoridan ustma-ust ikkita bidon oshib tushadi, so‘ng, Fotima kirib eshikni tanbalab oladi.

Z u h r a (*kiradi, hayron*). Nima gap?

M a r a s u l. Aya, xolam keldilar.

F o t i m a (*Zuhrani ko‘radi*). Ie! Kel... Eson-omon keldingmi?.. To‘yga nega kelmading? Bolam bechora enga telegramma yuborib besh so‘m oltmishtiyin naqd pulga kuyib qolaverdi.

Qo‘lida kapgir, R o h i l a kiradi.

R o h i l a. Nasiba, guruching suv ko‘tararmidi?

F o t i m a (*Rohilani ko‘rib*). Voy, qudam keptilar! Voy, girgitton! Esonmisiz, omonmisiz?.. Hoy, kelinposhsha, qudamni nega urintirib qo‘ydingiz? Qudaginamni nega urintirib qo‘ydingiz?

N a s i b a onasining qo‘lidan kapgirni olib chiqib ketadi.

Mana bu yoqqa chiqing, qudajon! Omin!.. Milisa o‘lgur hech qo‘ymaydi... Sutni bozorga oborib sot deydi.

M a r a s u l (*Zuhraga*). O‘z xolam bo‘la turib to‘yga kelmadingiz-a? O‘gay bo‘lsangiz ham xafa

bo‘lmas edim.

F o t i m a. O’gaydan battar bu!

N a s i b a ko‘kpiyoz, rediska olib kiradi.

N a s i b a. Marasul aka, ko‘kpiyoz to‘g‘rashga ustasiz...

M a r a s u l. O’tkir pichoq bo‘Isa!

Nasiba. (*Rohilaga rediskani berib*.) Aya, siz rediska archishni yaxshi ko‘rar edingiz...

F o t i m a. Voy, menga bering, kelinposhsha!

N a s i b a (*Zuhraning yoniga o ‘tirib*). Xola, biram sog‘indimki!..

M a r a s u l. Nasibaxon, boring, qozonga qarab turing!

N a s i b a chiqadi.

M a r a s u l (*piyoz to ‘g‘rarkan*). Dom otdixga har qachon borsa bo‘laveradi, to‘y degan narsa odamning umrida bir marta bo‘ladi.

Z u h r a. To‘yingning ta’rifini eshitdim, shu yerda bo‘lsam ham kelmas edim. Eski to‘yga borgani nomus qilaman.

M a r a s u l. Nimasi eski? Vino, araq, artistlar...

Z u h r a. Domla-imom, nikoh...

M a r a s u l. Ayalarim uchun o‘qitdim! Obbo!..

Z u h r a. Ayalaring nikohga boshqorong‘i bo‘lgan ekanmi?

F o t i m a. Hoy, imonsiz, onasini rozi qilsa, onasining oxiratini o‘ylasa yomonmi?

Z u h r a. Sen to‘lka o‘zingni deysan! Bu dunyo kuysa kuysinki, sennng oxirating bo‘lsin! Oxiratga munchalik hirs qo‘ygan ekansan, boraver!

F o t i m a. O g‘zingdan chiqib yoqangga yopishsin!

X u m o r x o n kiradi. Rohila va Zuhra bilan ko‘rishadi,

Keling, Xumorxon.

X u m o r x o n (*Fotimaga*). Xola, men narsalarimni sizga qo‘yib ketaman-da.

F o t i m a. Bemalol!

X u m o r x o n (*tashqariga*). Tog‘a! Spalniydag‘i katta sandiqni olib chiqing. Ustidagi narsalarni Ahadjon akamning kabinetlariga olib kirib qo‘ying!

R i z a m a t (*tovushi*). Xo‘p...

F o t i m a. O‘tiring, Xumorxon.

N a s i b a oftoba bilan dastsho‘y olib kiradi va Marasulning qo‘liga suv quymoqchi bo‘ladi.

Hay-hay!.. Qudamdan boshlang, kelinposhsha, ona rozi— xudo rozi!

Z u h r a. Muncha!.. O‘zing nega onamizning roziliklariga qaramagan eding, Sharif oqsoqolga beramiz deganda qari deb o‘zingni hovuzga tashlagan eding?

F o t i m a. Yoshlarning oldida tek o‘tir!

N a s i b a (*Zuhraga dastsho ‘y to ‘tib*). Qo‘lingizni yuvung, xola.

Z u h r a. Oyog‘im butun, o‘zim borib yuvib kelaman.

N a s i b a (*Xumorxonning qo‘liga suv quyayotib*). Rozilikda ham rozilik bor-da, hammasiga qarab bo‘lar ekanmi?

X u m o r x o n (*ta’limomuz*). Unaqa demang, opasi o‘rgilsin, bir vaqt kelib armon bo‘ladi. Dunyoda onadan aziz narsa bormi! Mana men, rahmatlik onamning roziliklariga qarab otam tengi Zargarovga xotin bo‘lib o‘tiribman-da.

M a r a s u l Xumorxonga hayron bo‘lib qaraydi, N a s i b a chiqadi.

F o t i m a. Barakalla, qizim!

R o h i l a. Rahmat!

N a s i b a osh keltirib qo‘yadi.

M a r a s u l. Qani, olinglar!

X u m o r x o n. Zargarovga tegib nima ko‘rdim!..

Z u h r a (*kuladi*). Yana nima ko‘rmoqchi edingiz? Yeganingiz oldingizda, yemaganingiz ketingizda, bu ko‘rganiningizga ko‘nglingiz to‘ymasa, hali yoshsiz, o‘qing! Shunday zamon bo‘lsa-yu, odam o‘qimasa!

F o t i m a. Nima ishing bor?

X u m o r x o n. Ilmim o‘zimga yetadi.

M a r a s u l. Xumorxon institutda o‘qigan. Uchtami, yo‘q, to‘rtta institutda o‘qigan. Yaqinda dotsent bo‘ladi.

Z u h r a. Voy, ilm uvol emasmi, nega ishlamaysiz? Hozirgi zamonda sichqon tutmaydigan mushuk ham odamning ko‘ziga xunuk ko‘rinadi-ya!

F o t i m a. Senga nima?

X u m o r x o n. Sertsam yaramaydi.

Z u h r a: Hmm. Unday bo‘lsa nolimasangiz ham bo‘ladi: Zargarov juda sizbop er ekan!

X u m o r x o n (*tutoqib*). Nega menbop bo‘lar ekan?.. Voy!

R o h i l a. Oling, Zuhrabuvi!

Z u h r a. Xo‘p, Zargarov amaldor emas, yelkasiga arqon tashlab bozorda yurgan hammol bo‘lsa tegarmidингiz?

X u m o r x o n. Voy, menga nima qipti! Og‘zim bor deb gapiroverarkansiz-da! Qanaqa betamiz xotinsiz!

Z u h r a. Xafa bo‘lmang... «Ona roziligi» deganingiz-ga aytdim.

M a r a s u l. Bo‘ldi endi, xola! Sizga nima og‘irligi tushdi?

F o t i m a. Hoy, qo‘yananmi, yo‘qmi?

X u m o r x o n (*o‘rnidan turib ketadi*). Menga o‘rgatmang! O‘rgatadigan boshqa durustroq odam topilib qolar!

R o h i l a. Unaqa demang, qizim, har qanday bo‘lganda ham sizdan katta...

X u m o r x o n. Qatta bo‘lib kim bo‘lib ketipti, maktabning eshidiga o‘tiradigan bir jujur-da!

N a s i b a (*achchig‘i kelib*). Xumorxon opa!

Z u h r a. Ha, jujurman. El-yurtga har kim qo‘lidan ksrgan xizmatini qiladi. Siz jujur ham emassizda, xonim, to‘lka xotinsiz! (*Pauzadan keyin*.) Lekin, sigirning qulog‘iga tushgan kanaday erni so‘rib yotish ham yaxshi kasb!..

Pauza

M a r a s u l. Xolam ruschani ham qoyil qiladilar... (*Masxara qilib*) «To‘lka xotinsiz!»

Z u h r a. Tilim kelishmaydi. (*Birdan*.) Tilim kelishmasa ham dilim kelishadi. Sening tiling kelishsa ham diling kelishmaydi.

M a r a s u l (*g‘azablanib*). Nima bo‘lipti dilim kelishmay?

Z u h r a. Ruschani yaxshi gapirasunu ruscha bilgan odamga hech ham o‘xshamaysan!

R o h i l a. Oshdan oling, Zuhrabuvi!

Z u h r a. Qornim to‘q, obed qilib kelgan edim.

Fotima (*bo‘g‘ilib*). Hech bo‘lmasa nasibangni olsang-chi! Qandoq chulchutsan!

Z u h r a. Nasibaxon, menga qoshiq bering.

F o t i m a. Obbo, oliftagarchilik o‘lsin!..

N a s i b a (*qoshiq beradi*). Mana, xola!

M a r a s u l (*kulib*). Ota-bobongiz qilgan ishni qilaversangiz-chi!

Z u h r a. Sening otang tuya minib chorbozorchilik qilar edi, sen «Pobeda» minib boshqa ish qilib yuribsan shekilli... .

F o t i m a (*tutaqib*). Qachon kelsang shamol-to‘polon bilan kelasan-a! Diydoring qursin!

Z u h r a. Xafa bo‘lma, har zamon kelib shamollatib turmasam chirib, irib ketasan!

M a r a s u l (*o‘rnidan turib ketadi, og‘zida osh*). Odam safarga ketayotganda xafa qilmasangiz nima bo‘lar ekan?!

F o t i m a. Yo‘qlab kelmay o‘l!

Z u h r a. Men seni yo‘qlab kelganim yo‘q. (*Nasibani ko‘rsatib*.) Mana buni yo‘qlab keldim, hali tuzukkina qanot chiqarmay uchishga talpingan mana bu chumchuqbolaning holidan xabar olgani keldim.

R o h i l a. Voy, Zuhrabuvi, sizga nima bo‘ldi, mening qizim nega chumchuqbola bo‘lar ekan...

M a r a s u l. Nega chumchuq bo‘lar ekan?.. Kichkina bo‘lsa chumchuq bo‘laveradimi! (*Rohilaga*.) Gapiring!

Zuhra o‘rnidan turadi. Unga qarab bir nima demoqchi bo‘ladi-da, aytmaydi, ko‘cha eshigi tomon yo‘naladi.

N a s i b a. Xola!.. (*Uning ketidan chopadi*.)

Zuhra chiqib ketadi.

F o t i m a (*Nasibaga eshittirib, Marasulga*). O’zing bilasan, jinni-ku bu axir, nima qilar eding teng bo‘lib? (*Roxilaga*.) Shunaqa dardi bor, tutib qolsa hech kimni tanimaydi.

Z a r g a r o v kiradi.

Z a r g a r o v. Hoy, soat necha bo‘ldiki, bahuzur o‘tiribsizlar? (*Oshga ko‘zi tushib*.) Oshmi? Xumorxon, mana bilet...

N a s i b a. O’tiring, Ahadjon aka... Mana hozir... (*Chiqadi*.)

X u m o r x o n. Bu beshinchı kupe-ku! Bularniki oltinchi kupega!

M a r a s u l. Mayli, mayli, o‘zimiz surishamiz.

Nasiba kosada osh keltirib Zargarovning oldiga qo‘yadi va qo‘liga suv quyadi.

Z a r g a r o v (*Marasulga*). Endi bu yog‘ini senga topshirdim... (*Oshga ishtaha bilan qo‘l uzatadi*.)

Kattakon sandiq ko‘tarib Rizamat kiradi. Marasul bilan Zargarovdan boshqa hamma unga qarashadi.

M a r a s u l (*tishini kovlab*). Sal ko‘taring, Rizamat aka!

Z a r g a r o v (*og‘zidati oshini zo‘rg‘a yutib*). Yo‘q-yo‘q» pastroq tushir!

R i z a m a t xotinlarning yordami bilan sandiqni uyga olib kiradi. Telefon jiringlaydi.

M a r a s u l (*trubkani olib*). Doktor Marasul Huzurjonov! Poliklinikadan spravka eltib berdim-ku? Direktsiyaga berdim. Hozir... (*Trubkani berkitib, Zar-garovga*.) Ahadjon aka!..

Z a r g a r o v. Kim?

M a r a s u l. Maorif mudiri. Yana o‘sha gap. Jonga tegdi. Ikki og‘iz gapirib qo‘ying. Zargarov oshni ko‘tarib apparat oldiga boradi.

Siz bilan o‘rtoq Zargarov gaplashmoqchilar. (*Trubkani beradi*.)

Zargarov (*trubkaga*). Salom... Doktorni tinch qo'yasizlarmi, yo'qmi? A? E, o'qitadi-da, o'qitmay nima qiladi, so'qimga boqadimi? (*Kuladi*.) Yo'q, men ham Xumorxonni so'qimga boqayotganim yo'q. Axir, bizday odamga bitta lichniy sekretar kerakmi, yo'qmi? Xo'sh? Qo'y shunaqa gaplarni! Menga qara, menga qara deyman!.. (*Jahli chiqib trubkani bir chekkaga qo'yadi va oshni yeyaveradi*.)

Uydan Xumorxon bilan Rizamat chiqadi.

Xumorxon. Yuring! Tezroq yursangiz-chi? (*Chiqib ketadi*.)

Rizamat oshning oldidan o'tolmaydi; u yoq-bu yoqqa qarab cho'ntagidan chorakta araq oladi, piyolaga quyib ichadi va oshdan bir-ikki luqma oladi.

X um o r x o n (*tovushi*.) Tog'a!

R i z a m a t (*og'zi to'la osh*). Ha!.. (*Oshdan yana bitta olib chiqib ketadi*.)

Z a r g a r o v (*Trubkani oladi*.) Bo'ldingmi? Menga siyosatdan dars berib bo'lkingmi deyman? Xo'p, qulq sol bo'lmasa: sen siyosatni kitobdan o'rgangan bo'lsang, men amaliy ishda o'rganganman, meni mot qilomaysan! Gapni ko'paytirma! Hozir mакtab direktoriga telefon qilib ayt! Komsomollariga ham aytib qo'ysin, hadeb odam yuborib sovet doktorining obro'yini to'kavermasin! (*Trubkani qattiq qo'yadi*.)

M a r a s u l (*suyak tishlab*). Amaldor degan mana shunaqa bo'lsa, hech tap tortmay u yog'ini-u yoqqa, bu yog'ini-bu yoqqa qilib tashlasa!

Z a r g a r o v. Nimadan tap tortaman! Olsa stolini oladi-da. Artelimga borib yana raisligimni qilaveraman. Muovinlik o'zimga ham o'tirishmayotipti. Rais yo'l-ni juda tor oladigan odam ekan! (*O'z uyi tomonga ketadi*.) Xumorxon!

F o t i m a uydan chiqadi.

F o t i m a. Marasul! Kelinposhsha! Qanisizlar, quda...

Uydan Rohila bilan Nasiba chiqadi.

Bu yoqqa kelinglar! Onang aylansin Marasul, xotining yosh, kimda nima ko'rsa havas qiladi. Nima dedingiz, quda?

R o h i l a. Umringizdan baraka toping, xo'l ziyraksiz-da!

F o t i m a. O'sha tomonlarda marvarid arzon emish, kelinposhshaning bo'ynini marvaridga to'ldirib kel!

R o h i l a. Qizim, o'p qaynanangni!

N a s i b a sakrab Fotimani o'padi. Zargarov, uning ketidan ikkita chamadon ko'targan Rizamat kiradi.

X um o r x o n. Ketdikmi... (*Fotimaga*.) Narsalarni sizga, sizni xudoga topshirdim. Tog'a, qani yuring!

N a s i b a. Xayrmi endi...

F o t i m a. Omin!

R o h i l a (*Nasibaga*). Qizim, onang o'rgilsin, odamlar izlab topolmagan baxt seni qidirib yurgan ekan! Oq yo'l! Xat yozinglar!

H a m m a kuzatib chiqadi. Xayrlashilgan tovushlar, Mashina jo'naydi. G'ozlar g'ag'illaydi.

P a r d a

TO’RTINCHI KO’RINISH

O’sha dekoratsiya. Oradan bir yildan ortiq vaqt o‘tgan «Ichkari» aksi urib qolgan, lekin bo‘yni va qo‘llaridagi ziynat asboblaridan ko‘z qamashadigan N a s i b a bolasini belanchakka solib allalamoqda, M a r a s u l supada xurrak otib uxlamoqda.

N a s i b a. Alla, alla... Alla, qo‘zim, alla... Jonim bolam, alla...

B o l a yig‘laydi.

M a r a s u l (*uyg ‘onib*). Yig‘latmasang-chi! Qo‘lingga ol! (*Pauza*.) Bitta ko‘k choy damlab kel.

N a s i b a bolasini olib chiqib ketadi. Xumorxon kiradi. Yana uxbab qolgan Marasulning burniga cho‘p tekkizib uyg‘otadi.

M a r a s u l. E, qo‘ysang-chi!..

X u m o r x o n. Uf, biram zerikib ketayotibmanki!.. Marasul aka, mashinangizga solib bir aylantirib kelsangiz-chi!

M a r a s u l. Ahmoq bo‘lma! Ering bilib qolsa nima deydi!

X u m o r x o n. O’zingizga kerak bo‘lganda, erim esingizga kelmaydi-ku! Turing!

M a r a s u l. Hozir meni qimirlatma. Samovarda osh qilgan edik, ko‘proq yeb qo‘yibman.

N a s i b a choy olib kiradi. Quy, shopirib-shopirib quy!

Fotimaning tovushi — Kelinposhsha! Xamiringiz oshib ketgandir!

M a r a s u l. Tovush bersang-chi!

N a s i b a. Hozir... (*Bolasini belanchakka solib, ketmoqchi bo‘ladi*.)

B o l a yig‘laydi.

M a r a s u l. Bolangni olib ket!

Xumorxon. Menga bera qoling, opasi o‘rgilsin!

M a r a s u l. Qo‘ying, olib ketsin!

N a s i b a bolani olib chiqib ketadi.

Toqatim bormi!..

N a s i b a bir qo‘lida bola va bir qo‘lida tog‘ora, o‘tib boradi.

Xumorxon. Voy, opasi o‘rgilsin, xamir qilganmidengiz.... qarashvorsam bo‘lar ekan...

M a r a s u l. Qo‘yavering!

N a s i b a chiqadi.

X u m o r x o n. Bitta tug‘di-yu, qo‘tir echkiday ,bo‘ldi qoldi-ya!

M a r a s u l. Tuqqanidan keyin ko‘p dard tortdi-da!

X u m o r x o n. Obbo! Hech kim tug‘mapti, hech kim dard tortmaptimi! Tanavori shunaqa o‘zi!

M a r a s u l. To‘g‘ri! Tanavor degan mana bunaqa bo‘ladi.

Uni o‘ziga tortib o‘payotganda Zargarov kiradi.

Z a r g a r o v. Marasul!

M a r a s u l. (*Xumorxonning tishini ko‘rgan bo‘lib*) Tish deganga qarab turish kerak-da! Boring, tandirda o‘t bor, lunjingizni tuting! Gazak olib ketipti.

Xumorxon jag‘ini ushlaganicha chiqib ketadi.

Z a r g a r o v. Nima qipti?

M a r a s u l. Miokardiodistrafiya.

Z a r g a r o v. Shunaqami? (*O’tirib.*) Choydan quy! Olganimda ham jag‘ tishining mazasi yo‘q edi o‘zi...

M a r a s u l (*choy uzatib*). Ha, Ahadjon aka, sizning ham tishingiz og‘riyotiptimi?

Z a r g a r o v. Yurak! Yuragimni xuddi sichqon kemirayotganday!

M a r a s u l. Buning iloji oson-ku: bitta tirik mushuk yutasiz-da...

Z a r g a r o v. Kulasan-da! Tani boshqa dard bilmas... Oqila yana ayniyapti!

M a r a s u l. Xo‘s? Nima bo‘pti?

Z a r g a r o v. O’tgan kuni pul yuborgan edim, olmapti. «Menga sadaqa kerak emas, sudga berib qonuniy aliment olaman» degan emish. Hayronman...

M a r a s u l. Undan bunaqa gap chiqmas...

Z a r g a r o v. Yo‘q, sen bilmaysan, burungi Oqila emas. Ishga kirganiga ham yil to‘layotipti, axir!

M a r a s u l. Ayb o‘zingizda! Nega ishga kirgani qo‘ydingiz?

Z a r g a r o v (*bo‘g‘ilib*). Qiziqmisan, mendan so‘raptimi!.. Endi, uka, sen yana bir borib hovurini tushirib kelasan-da!

M a r a s u l. O‘zingiz borganingiz ma’qul, Ahadjon aka, xotin kishi yaxshi gapning gadosi: boshini silasangiz mushukday darrov xurrak otadi.

Z a r g a r o v. Yo‘q, yo‘q! Mening fe’limni bilasan-ku: jahlim chiqsa tangaday janjalni g‘alvirday qilaman-qo‘yaman. Sen bora qol! Ertaga ertalab jo‘na!

M a r a s u l. Xo‘p.

Xumorxon boshiga savat qo‘yib kiradi.

X u m o r x o n. Qep qoling, issiq non bu! (*Kulgi. Zargarov savatni tutadi.*) Ha, aytganday, kimdir telefon qilib sizni so‘ragan edi.

Z a r g a r o v (*xavotir olib*). Kim ekan, so‘ramadin-iizmi?.

X u m o r x o n. Yo‘q!

Bolasini ko‘tarib Nasiba kiradi va uyga tomon yo‘naladi.

X u m o r x o n. Nasibaxon, nonni qaerga qo‘yay?

N a s i b a. Bu yoqqa olib keling.

I k k o v i uyga kirib ketadi.

Z a r g a r o v (*Marasulga*). Raykomdan bo‘lmasin tag‘in? Oqila bir baloni boshlagan bo‘lsa-ya?

M a r a s u l. E-e-e... Yurakdan ham bor ekan-da!

Telefon jiringlaydi. Xumorxon uydan chiqadi.

M a r a s u l (*trubkaga*). Huzurjonov... (*Vahima qilib*.) A?

Z a r g a r o v (*cho ‘chib*). A?

M a r a s u l. Ie, xola, sizmisiz...

Z a r g a r o v. Xolang o‘lib xolasiz qol!..

M a r a s u l. Ha-ha, shu yerdalar. Xo‘p... (*Trubkani Zargarovga beradi*.)

Z a r g a r o v (*achchig ‘i kelib, trubkaga*). Hali uyga telefon qilgan ham sizmidingiz? Xo‘sh, nima deysiz? Kim? Klub mudiri? Xo‘p, bering... (*Boshqa tonda*.) Salom!.. Rahmat!.. Ha, Zuhraxonim o‘tgan kuni aytgan edilar. Ha-ha-ha-ha, Zuhraxonim aktiv bo‘lganlaridan beri joningiz kirib qolgandir? Ha, komsomol qizlaringizdan qolishmaydilar. Xo‘p, soat oltiga yetib boraman. (*Trubkani qo ‘yadi*.)

M a r a s u l. Nima gap?

Z a r g a r o v. Xotin-qizlar klubi mendan «Sovet oilasi» degan mavzuda bir doklad qilib berishimni so‘ragan edi, xo‘p deb, esimdan butkul chiqib ketipti.

X u m o r x o n. Nega xo‘p dedingiz, sekretaringiz kasalxonada, dokladni sizga kim yozib beradi?

Z a r g a r o v. Ie, bunisi esga kelmapti-ku... (*Esiga tushadi, Xumorxonga*). Aytganday, karavotning tagidagi doklad-xaltani olib chiqing.

Xumorxon chiqadi.

M a r a s u l. Doklad-xalta?

Z a r g a r o v. Bir albom bor, sekretarim qaerda dokladbop narsa ko‘rsa qirqib shunga yopishtirib yuradi. Shuning otini doklad-xalta qo‘yanman.

M a r a s u l. Doklad tayyor emas, deb qo‘ya qolsangiz bo‘lmasmidi?

Z a r g a r o v (*sekin*). Xomkalla! «Sovet oilasi nima ekanini o‘zing bilmaysanmi, tayyorgarlik ko‘rishning nima keragi bor?» deb qolsa, nima degan odam bo‘laman? Bu yoqda Oqila! Nozik payt!..

M a r a s u l. Ha, bu tomoniga aqlim yetmapti.

Xumorxon kattakon albomni zo‘rg‘a ko‘tarib kiradi.

Z a r g a r o v. Mana bunda hamma gap bor! Qanaqa doklad kerak bo‘lsa, sekretarim shunga qarab birpasda boplar edi. Qani Marasul, qog‘oz-qalam ol-chi!

M a r a s u l (*qog‘oz-qalam uzatib*). Xumorxon, sizning xatingiz chiroyliroq!..

X u m o r x o n (*yozishga chog‘lanib soatga qaraydi*). Soat oltiga yetib boraman dedingiz, oltigacha yozib bo‘larmikanmiz?..

Z a r g a r o v. Nega yozib bo‘lmaymiz? Dokladning siyosiy qismi, raqamlar tayyor deyish mumkin. (*Albomni ko‘rsatib*.) Mana! Faktlar masalasiga kelganda... (*Marasulga*.) Sening oilang bor, mening oilam bor, shunga qarab yozaveramiz-da!

M a r a s u l. To‘g‘ri!

Z a r g a r o v. Yozing! Sarlavha, sarlavha yozilmaydi.

M a r a s u l (*Xumorxonga*). Tag‘in yozib yurmang...

Z a r g a r o v. Xo‘p... Sarlavha... «Sovet oilasi!» Xitob! Uch nuqta!

X u m o r x o n. Voy, sarlavhada xitob bilan uch nuqta nima qilib yuripti?

Z a r g a r o v. Mayli, ishqilib bir nima qo‘ying, o‘zingiz bilasiz... Xo‘sh, nimadan boshlaymiz?

X u m o r x o n. Oila masalasi bo‘lgandan keyin xotinlardan boshlash kerak-da!

Z a r g a r o v. To‘g‘ri! (*Al’bomni varaqlaydi*.)

X u m o r x o n (*o ‘ylaydi va aytib yozadi*). «Burungi vaqtida erlarga cho‘ri bo‘lgan xotinlar hozir erlar bilan teng...»

Z a r g a r o v. To‘g‘ri, lekin o‘chiring! Kelishtirib yozish kerak!..

X u m o r x o n. Bu kelishmadimi?

Z a r g a r o v (*albomni tez-tez varaqlaydi*). Hozir-hozir... Ha, mana, mana! yozing! (*Doklad tonida, baland ovoz bilan*) «O‘rtoqlar! Buyuk Oktyabr sotsialistik revolyutsiyasidan burun...»

M a r a s u l. Ahadjon aka, tovush hali kerak bo‘ladi hozir bir parda pastroq olavering. .

Z a r g a r o v. To‘g‘ri! (*Bir oz pastroq, lekin doklad tonida*) «...sotsialistik revolyutsiyadan burun hech qanday huquqqa ega bo‘lmagan...» Ana endi haligini qo‘shsez, ya’ni erlarga cho‘ri bo‘lgan mehnatkash xotin-qizlarimiz hozirgi davrda erlar bilan teng huquqqa ega bo‘lib, o‘z ozodliklarini to‘liq ta’minladilar! Hmm... Asli mana shu yerdan shu yergacha qirqib yopishtirib qo‘ya qolsak ham bo‘lar ekan. Yelim bormi?

M a r a s u l. Nasiba! Hoy, Nasiba! Allaqaerda yelim bor edi, topib kelng!

Nasibaning tovushi — Hozir!

Z a r g a r o v. Xo‘sh, endi nima deymiz? (*Albomni varaqlab*) Ie, mana bu yerda Chernishevskiyning gapi bor ekan, buni ham qirqib yopishtiring!

M a r a s u l. O‘rtoq Chernishevskiy hozir qaerda ishlaydilar?

Z a r g a r o v (*o‘ylab*). Tilimning uchida turipti-ya! Xayr, mayli, keyin aytaman... Xo‘sh, yana nima deysiz?

Xumorxon ko‘chirmalarni qirqib yopishtiradi. Marasul bilan Zargarov ikkovi uzoq o‘laydi. Kir yuvayotgan Nasiba yelim olib kiradi.

N a s i b a. Mana... (*Bolasini belanchakka yotqizib, Marasulga*) Ro‘molchangiz tozami?

Marasul fikrimni bo‘lma, deb ishora qiladi; kir ro‘molchasini olib Nasibaning qo‘liga beradi; paypog‘ini ko‘rsatib, oyog‘ini uzatadi. Nasiba uning paypog‘ini yecha boshlaydi.

F o t i m a (*tovushi*). Kelinposhsha. N a s i b a. Hozir...

M a r a s u l. Yozing! «Minglarcha va yuz minglarcha ozod xotin-qizlarimiz...»

Nasiba ketmoqchi bo‘lganda bola yig‘laydi.

Bolangni olib ketsang-chi! Ko‘rmayotipsanmi, bu yerda odamlar ishlab o‘tiripti!

N a s i b a bolani olib chiqib ketadi.

Yana bitta qo‘shimcha: «baxtiyor farzandlarimizning sog‘lom bo‘lib yetishuvi uchun.

F o t i m a kirayotib qoqinadi va bidonlar qo‘lidan tushib ketadi. Hammaning kayfi uchadi. Fotima bidonlarini olib ko‘chaga chiqib ketadi.

Z a r g a r o v (*o‘ziga kelib*). Hmm..Chorak kam bir soat vaqt qoldi. Sekretarning qadriga yetmay yurgan ekanman.

X u m o r x o n. Menga qarang, borib ikki og‘iz valaqlang keling-da, nima qilasiz buni yozib, yopishtirib...

M a r a s u l. To‘g‘ri, bunaqa paytda to‘rtta «masalanu» sakkizta «ya’ni» bir doklad-da!

Z a r g a r o v. To‘g‘ri-ku, lekin men gapirganimdan keyin «o‘rtoq Zargarov undoq dedilar, Ahadjon akam bundoq dedilar» degulik bo‘lishi kerak-da!

M a r a s u l. Demasa demas!

Z a r g a r o v. Xo‘p, mayli. Boriga baraka, u yog‘ini og‘zaki boplayman. Xo‘p, men ketdim bo‘lmasa. Xumorxon, yuring, mening kostyumim bilan poxol shlyapamni topib bering!

X u m o r x o n. Shunaqasiz-da, bir joyga boradigan bo‘lsangiz tugmachangizgacha solib qo‘yishim kerak. Eksplatator! (*Chiqadi.*)

Z a r g a r o v (*Marasulga ko‘z qisib*). Xotin bo‘lganidan keyin qilasan-da! (*Chiqadi.*)

N a s i b a kiradi, bola yig‘laydi.

M a r a s u l. Hoy, tinchlik bormi, yo‘qmi?

N a s i b a. Axir bola kasal-ku.

M a r a s u l. Kasal bo‘lsa yig‘latmagin, kasal bo‘lmaydi.

N a s i b a. Qanaqa odamsiz!

M a r a s u l. Ie, tilingiz ham chiqib qoliptimi? (*Uyga kiradi.*)

F o t i m a kiradi.

F o t i m a. Kelinposhsha! (*Bo‘sh bidonni oldiga qo‘yib.*) Menga ikki bidon bermadi juvon o‘lgur! Sut ko‘p, lekin bir bidondan berayotipti. Yuring, bir bidon siz oling! Yuring!

N a s i b a. Yo‘q, aya, men... bormayman!

F o t i m a. Ko‘chaning narigi yuzida-ku, chiqib kelsangiz nima qiladi? Bola bilan borsangiz beochirt beradi.

N a s i b a (*qat’iy*). Yo‘q, aya, chiqmayman!

F o t i m a. Har kuni chiqing deyayotganim yo‘q-ku!

N a s i b a. Gapirmang, aya! Bir qilmaganim kolxoz do‘konidan sut olib sotish qolganmidi!?

F o t i m a. Xo‘p, siz arzandangizni quchoqlab o‘tiring, oppoq sochim bilan men chiqay! (*Yig‘lamsirab.*) Peshonam qursin: o‘g‘il o‘stirib nima ko‘rdim! (*Paranjisini yopinib bidonni olib, ko‘cha eshigiga tomon yo‘naladi.*) Dod! Zolim kelinning dastidan dod! (*Chiqadi.*)

N a s i b a (*bolasini allalab.*)

Nebo spit, zvezdy spyat,
Spi i ты malышка...

(*O‘pkasi to‘lib.*) Nebo spit, zvezdnly spyat...

(*Kuyunib yig‘laydi.*)

Zuhra kiradi.

Z u h r a. Nasiba...

Nasiba boshini ko‘taradi. Zuhrani ko‘rib o‘zini yig‘idan tiymoqchi bo‘ladi, lekin battarroq xo‘rligi kelib o‘zini uning quchog‘iga otadi.

Nima qildi, qizim?.. Gapir!

N a s i b a. Endi nima ham deyman... Menda gapirgani til bormi?.. Boshda o‘rtoqlarim aytishgan edi. Aytganda ko‘zimga hammasi baxil ko‘ringan edi... O‘qituvchilarim ham aytishgan edi! Tushimmi, o‘ngimmi?.. Qanaqa joyga tushib qoldim, qanaqa odamlar orasiga kirib qoldim? Maktabimdan, o‘rtoqlarimdan ayrilib topganim shu bo‘ldimi!..

Z u h r a. Ayrilganni ayiq yer, bo‘linganni bo‘ri yer degan gap bor. Esing kiripti — yaxshi!

N a s i b a. Shu kunimdan o‘lganim yaxshi emasmi?

Z u h r a. Nega? Senga nima qipti? Sen qoqindin xolos, yiqilganing yo‘q —yana o‘rtoqlaring bilan baravar qadam tashlab ketishing mumkin. Bu yog‘i o‘zingga bog‘liq. Kimga gapirsang, gaping o‘tadi,

qayoqqa uzatsang qo‘ling yetadi. Sening yoshingda mana bizga qiyin edi! (*O‘ychan.*) Bizning faryodimiz hatto ota-onalarimizning ham qulog‘iga kirmas edi. (*Birdan.*) Yig‘lama, yig‘idan hech kim baraka topgan emas! Yur!

N a s i b a (*hayron*). Qayoqqa?

Z u h r a. Klubga. Sovet oilasi to‘g‘risida Ahadjon akang, o‘rtoq Zargarov doklad qiladilar. Bir eshitaylik, sovet oilasi to‘g‘risida nima der ekanlar?..

Uydan M a r a s u l chiqadi.

N a s i b a. Marasul akamga ayting bo‘lmasa.... Siz ayting!

M a r a s u l. E-e-e... Kelsinlar!.. Keling, xola... Dunyoda bormisiz?.. Hech kelmaysiz...

Z u h r a. Mana, keldim.

Nasibaning ro‘molchasi tushib ketadi.

M a r a s u l (*ro ‘molchani darrov olib beradi.*) Marhamat, xonim...

Z u h r a. Nasiba men bilan klubga boradi.

M a r a s u l. E, bormisiz, shunaqa qiling... (*Nasibaning qo‘lidan bolani oladi.*) Boring, kiyinib chiqing!

N a s i b a hayron bo‘ladi va sevinib uygaga kirib ketadi.

Shunaqa ishlarga hech hafsalasi yo‘q, xola! Bir yildan beri ko‘chaga olib chiga olmayman-a!.. «Yur, hech bo‘lmasa kino ko‘raylik» desam, «Kino kelib meni ko‘rsin» deydi, Ayb o‘zida-yu, yana ba’zan mendan nolib ham qo‘yadi. Bilmagan odam allanimalar deb o‘ylashi mumkin.

Z u h r a. Mumkin! Boy deb o‘ylashi ham mumkin, feodal deb o‘ylashi ham mumkin. Nima desa kam!

M a r a s u l. Ie!..

Z u h r a. Uzing ham borgin, senbop gaplar bo‘ladi.

M a r a s u l. Jonim bilan!..

Zargarov bilai Xumorxon kiradi.

Z a r g a r o v. E-e, Zuhraxonim, salom... (*Stoldan qog‘ozlarini olib portfelga soladi.*) Meni olib ketgani keldingizmi? Rahmat, rahmat... Qani, ketdik bo‘lmasa!

Z u h r a (*Marasulga*). Qani Nasiba?

M a r a s u l. Sizlar boraveringlar, biz ketlaringdan yetib boramiz.

Z u h r a (*Xumorxonga*). Siz-chi, siz bormaysizmi?.

X u m o r x o n. Sertsam bir tarzi bo‘lib turipti.

Z u h r a. Shuning uchun boring deyman-da: yuragi sog‘ odamlarni ko‘rsangiz, ko‘kragingizga shabada tegsa, butkul tuzalib ketsangiz ajab emas.

Zargarov bilan Z u h r a chiqib ketadi. Mashnna gudok berib jo‘naydi. N a s i b a uydan yugurib chiqadi.

N a s i b a. Ketishdimi?

M a r a s u l. Ha.

N a s i b a. Yuring, Xumorxon opa, birga boramiz.

X u m o r x o n. O, opasi o‘rgilsin, Ahadjon akangizning gapini uyda eshitganim ham yetar, endi klubga borib ham eshitaymi?

M a r a s u l (*bolani berib*). Ushlang! Siz ham bormay qo‘ya qoling!

N a s i b a. O‘zingiz aytdingiz-ku!

M a r a s u l (*achchig‘i kelib*). Qachondan beri men nima desam shuni qiladigan bo‘lib qoldingiz?

N a s i b a. Bir yilda bir marta borsam nima qipti?..

M a r a s u l (*baqirib*). Bormaysan!

N a s i b a. O‘zingiz bir joyga olib bormasangiz; sizni mehmonga chaqirganlar yolg‘iz o‘zingizni chaqiradi; kinoteatr degan narsalar esimdan ham chiqib ketdi... Parkka olib chiqmasangiz...

M a r a s u l. Nima qilaman parkka olib chiqib! Projektorga solib ko‘ramanmi? (*Chiqadi.*)

X u m o r x o n. Erning gapini ikkita qilish yaxshi emas, opasi o‘rgilsin! Aravasiga tushganingizdan keyin ashulasini ham aytasiz-da! Mana men aytib yuribman-ku, mendan ibrat olsangiz bo‘lmaydimi! (*Chiqadi.*)

N a s i b a sahnada yolg‘iz qoladi; bir oz o‘ylab turganidan keyin shiddat bilan ko‘chaga chiqib ketadi.

P a r d a

UCHINCHI PARDA

BESHINCHI KO’RINISH

Klub sahnasi. Prezidiumda Zuhra, Po‘latjon Domla, Zargarov minbarda doklad qilmoqda.

Z a r g a r o v (*choy ichib, so‘zida davom etadi.*) Shu bilan birga minglarcha, yuz minglarcha ozod xotin-qizlarimiz boshlang‘ich, o‘rtta va oliy maktablarda o‘qimoqda-lar...

Sahna yonidan chiqib kelgan Rizamat choy quyib, kamoli ehtirom bilan minbarga qo‘yadi.

(*Doklad tonini buzmay, Rizamatga.*) Rahmat!.. Va shu bilan birga kelajak avlodimizning hayoti hamda baxtini ta’minalash uchun kurash sohasida ham o‘z burchlaridan ilhomlanib, insoniyat oldidagi o‘z vazifalarini sharaf bilan bajarmoqdalar.

T o v ush. O‘rtoq Zargarov, qisqaroq!

Z a r g a r o v (*tushunmay, doklad tonida*). Bundan qattiqroq gapirolmayman, tovushimning bo‘lgani shu, o‘rtoqlar! O‘rtoqlar! Ulug‘ demokrat Chernishevskiy bun-day deb yozadi: «Tabiat xotin-qizlarni zo‘r iste’dodli qilib yaratgan, ularga aql-idrok ato qilgan bo‘lsa-da, biroq jamiyat bu aql-idrokni tan olmayotir, poymol qilayotir, bo‘g‘ayotir!» (*Zo‘r taassuf bilan.*) O‘tmishda mana shunday edi, o‘rtoqlar! Shu bilan so‘zim tamom. (*Chapak kutadi.*)

P o‘l a t j o n D o m l a. Savollar bormi?

Z u h r a. Mumkinmi, bir savol... Xo‘p, o‘tmishda shunday ekan... xotin-qizlarning aql-idrokini, talantini tan olmaydigan, oyoqosti qiladigan, bo‘g‘adigan odamlar hozir ham bormi?

Z a r g a r o v (*doklad tonida*). Yo‘q, albatta! Bo‘lishi mumkin emas, o‘rtoqlar!

P o‘l a t j o n D o m l a. Baxtga qarshi, hozir ham bor. Bu masalada jamoatni aldaydigan shaxslar, hatto mansabdarlar ham topbladi!

Z a r g a r o v. Tushunolmadim... ,

Z u h r a. Nimasiga tushinolmadingiz?

Z a r g a r o v (*doklad tonida*). O‘rtoqlar! Oyoqosti qiladigan, bo‘g‘adigan shaxslar yo‘q, albatta. Biz bunga yo‘l qo‘ymaymiz! Mutlaqo yo‘l qo‘ymaymiz!

V ye r a (*zaldan*). Menimcha bor! Topiladi!

Z a r g a r o v (*doklad tonida*). Ehtimol bordir, lekin biz qoloq oilalarga emas, ilg‘or oilalarga qarashimiz kerak, o‘rtoqlar!

P o‘l a t j o n D o m l a. Ya’ni?

Z a r g a r o v. Ya’ni... (*Doklad tonida*.) Men bir oila to‘g‘risida gapirishim mumkin! Mening qo‘sним bor, doktor Huzurjonov. Mana bu oilani haqiqiy oila deyish mumkin! Mana bu oila bugungi kunning yuksak talablariga to‘liq javob beradi desam xato qilgan bo‘lmayman. Bu oilaning xususiyati shundan iboratki...

N a z i r a (*zaldan*). Noto‘g‘ri!

Z a r g a r o v. Hoy, qizlar, agar gapiradigan bo‘lsalaring, mana bu yerga chiqib, xaloyiqqa gapiringlar.

N a z i r a. Gapirishimiz mumkin. Mumkinmi, domla?

P o‘l a t j o n D o m l a. Mumkin, bu yoqqa chiq!

Z a r g a r o v (*norozi*). Majlisda tartib bo‘lishi kerak!

P o‘l a t j o n D o m l a. Bugungi majlisning tartibi shunaqa!

V ye r a bilan N a z i r a sahnaga chiqadi.

N a z i r a. Huzurjonov Nasibaning o‘qishini juvonmarg qildi, oliv ma’lumot beraman degan va’dalar bilan olib xizmatkor qilib qo‘ydi-ku! Buning nimasini maqtaysiz?

N a s i b a (*yugurib sahnaga chiqadi*). Nazira!

Z a r g a r o v (*Nasibaga*). Siz ham shu yerdamisiz?

V ye r a. Huzurjonov Nasibani sizning qo‘lingiz bilan maktabdan yulib oldi!

N a s i b a. Vera!

N a z i r a. Nasibaning oyoq-qo‘lini bog‘lagani Huzurjonovga siz arqon eshib berdingiz!

Z a r g a r o v (*muloyim, lekin tahdid bilan*.) Aravani quruq olib qochmang, oyim qiz!.. (*Boshqa bir nima demoqchi bo‘lib, aytolmaydi*.) Yarashmaydi!.. Komsomol ekansiz... Ne-xo-ro-sho!! (*Doklad tonida*.) O‘rtoqlar, Huzurjonovning xotini universitetga kirgani tayyorlik ko‘rayotipti, i... kiradi ham!

V ye r a. Yolg‘on!

Z a r g a r o v (*jahli chiqib*). O‘zining tili bor, o‘zi aytsin! (*Yo‘talib qo‘yadi*.)

N a z i r a. Nasiba, bu yoqqa chiq! Gapir!

Zargarov yana yo‘taladi. Nasiba yerga qaraganicha turib qoladi.

P o‘l a t j o n D o m l a. Shunaqami, qizim, rostmi shu gap?

N a s i b a. Yolg‘on! Domla, kechiring... Men... men... sizni aldadim, endi... yuzingizga qandoq qilib qarayman. Ko‘zim ochildi... (*yig‘lab yuboradi va sahnaning orqasiga o‘tib ketadi*.)

Ketidan Vera va Nazira ham chikadi.

Z a r g a r o v (*peshona terini artib*). Demak Huzurjonov menga noto‘g‘ri ma’lumot bergen ekan-da!.. Ko‘ramiz, tekshiramiz... (*Yozib oladi*.)

Prezidiumga zaldan xat tushadi. Xatni Zuhra olib domлага beradi.

P o‘l a t j o n D o m l a. Kechirasiz, bir savol tushdi, o‘qishga majburman.

Z a r g a r o v. To‘g‘ri, savollar mana shunaqa yozma ravishda berilishi kerak.

P o‘l a t j o n D o m l a (*o‘qiydi*). «Dokladchi Zargarov uch bola ko‘rgan xotini Oqila Shamsievaning ustiga Xumorxon Mansurxo‘jaeva degan bir juvонни olgan...»

Z a r g a r o v (*shoshib*). Shoshmang! Tuhmat! Oqila bilan ajrashib ketganimga mana shu hafta rosa besh yil to‘ldi!

P o‘l a t j o n D o m l a (*qog‘ozni ko‘rsatib*). Oqiladan ikki yashar o‘g‘lingiz bor ekan-ku?

Z a r g a r o v (*pinagini buzmay*). Nima qipti, bo‘lishi mumkin! Mumkin! Bu bola bundan besh yil

burun bino bo‘lgan, lekin yopishib qolgan edi, uch yildan keyin ko‘chib, tug‘ildi...

Z u h r a (zaharxanda qilib). Hm, yopishib qolish bolangizga ota merosi ekan-da: o‘zingiz ham Xudoyorxon zamonida bino bo‘lib endi tug‘ilganga o‘xshaysiz!.. Domla, menga so‘z bering!

P o‘l a t j o n D o m l a. Marhamat, Zuhraxonim.

Z u h r a. O‘rtoqlar! Bugungi dokladdan bir pullik bahra olmagan bo‘lsak ham, lekin, vaqtimiz bekor ketgani yo‘q: biz qirq xotinlik bo‘lmasa ham, har qalay, qo‘sh xotinlik Xudoyorxonni ko‘zimiz bilan ko‘rdik, bilib qo‘ydi!

Z a r g a r o v (garang). Zuhraxonim...

Z u h r a. O‘tiring! Ma’lum bo‘ldiki, hozirgi Xudoyorxonlar shlyapa ham kiyar ekan, papka ko‘tarib ham yurar ekan, sovet qonunlariga chap berish, jamoatni chalg‘itish uchun mana bunaqa joylarda minbarga chiqib, mast tuyaday, og‘zidan ko‘piklar ham sochar ekan!

Z a r g a r o v (stol mushlab). Mumkinmi!.. Qog‘ozday g‘ijimlab tashlayman!..

Z u h r a (pisand qilmay). O‘tiring! O‘rtoqlar, bu yerda Zargarov singari shlyapalik Xudoyorxonlardan biri — Marasul Huzurjonov masalasi ham ko‘tarildi...

Z a r g a r o v (qog‘ozlarini yig‘ishtirib). Men siz bilan tegishli joyda gaplashaman!.. (Jo ‘nab qoladi.)

Z u h r a (ketidan). Shlyapangizni olib keting! Hoy, shlyapa!

R i z a m a t shlyapani uinng qo‘lidan olib Zargarovning ketidan chopadi.

P a r d a

OLTINCHI KO’RINISH

Zargarov hovlisida oshxona. Xumorxon oyna oldida pardoz qilib o‘tiribdi. M a r a s u l kiradi.

M a r a s u l. Ahadjon akam qelmadilarmi?

X u m o r x o n. Yo‘q. Ha, muncha tajangsiz?

M a r a s u l. Bizning xotin til chiqargan desam, oyoq ham chiqaripti!

X u m o r x o n. Bormagin degan edingiz-ku!

M a r a s u l. Ketipti!..

X u m o r x o n. Sizdan ham serpulrog‘ini topgandir-da... Bunaqa vaqtda erni sher qiladigan pul, xotinni sher qiladigan xushtor!

M a r a s u l. Aljima!

X u m o r x o n (pauzadan keyin). Yana Oqilanikiga borarmishsizmi?

M a r a s u l. Ha! Bora berib ostonasini siyqa qilib yubordim! Erga tekkan senu jafosini men tortaman! Yomon vijdonsizlik qilgansan-da! Bechora Oqilaga odamning rahmi keladi.

X u m o r x o n. Oqilaga-ya? Oqilaga rahmingiz keladimi.? Nasibaga-chi? Nasibaga rahmingiz qelmaydimi? Men Nasibaga ham kundoshman-ku!

M a r a s u l. Ie!

X u m o r x o n. Yo‘q-yo‘q, kundosh emas, yarim kundosh! A?.. Yarim kundoshman. (Kuladi.) Vijdonsiz emish! Meni, men vijdonsizni Nasibaga yarim kundosh qilgun-cha o‘lib bo‘ldingiz-ku! Kislovodskda kechasi Nasibani dori berib uxlatib qo‘yib, meni sanatoriyadan soy bo‘yigacha qo‘lida ko‘tarib borgan kim edi? Yaxshi ko‘raman deb yig‘lagan, oyog‘imga yiqilib botinkamni mo‘ylabi bilan cho‘tkalagan kim edi?

M a r a s u l. Ahmoq! O‘z xotinini aldagani odam o‘ynashiga rost gaiiradi deb senga kim aytgan edi?

Eshik taqillaydi.

X u m o r x o n. Kiring! Kira qoling!

O q i l a kiradi. Ikkovi gangib qoladi.

M a r a s u l. E-e, kelng Oqilaxon opa... Kelganingiz juda yaxshi bo‘ldi-da, ertaga boradigan bo‘lib turgan edim...

X u m o r x o n. Keling...

O q i l a. Eringiz qani?

X u m o r x o n. Sizning ham eringiz-ku... Majlisda!

M a r a s u l. Birpas o‘tira turing, kelib qolar.

O q i l a. Mana shu povestkani Zargarovning o‘z qo‘liga topshirishim kerak edi... Siz berib qo‘yarsiz.

X u m o r x o n (*povestkani olib o‘qiydi*). «Uchinchi uchastka xalq sudi...»

O q i l a. Orani ochiq qilib, Zargarovni snzga butkul bermoqchiman.

X u m o r x o n. Voy, nega, ikkovimizga ham bo‘lib turuvdi-ku...

M a r a s u l. Endi xafa bo‘lmaysiz, opa...

O q i l a. Nega xafa bo‘laman, men Zargarovga o‘n yetti yil xotin bo‘lib beshik, qozon-tovoq, kirtog‘oradan boshqa narsa ko‘rgan emasman. Men boshqa narsaga — yur-timizda hali ham insonlik qadr-qiyamatini bilmagan, xotin degan nomga isnod keltiradigan makyonlar borligiga xafa bo‘laman!

M a r a s u l. E-e!..

X u m o r x o n. Voy (*Marasulni guvoh qilib*). Mana, aytsinlar... men eringizga o‘zim tegibmanmi?

O q i l a. Yo‘q, albatta! Bilaman, sizni tegishga, bolalarini chirqiratib uni uyidan, o‘n yetti yillik uyidan yilib olishga majbur qilgan narsa Zargarovning puli, martabasi. Zargarov amalidan bekor bo‘lsin-chi, qayda ko‘rdim qora eshagim dermikansiz!

X u m o r x o n. Voy qanaqa nekulturniy xotinsan! Sekinroq gapirsang-chi, qishloqi!..

O q i l a. Shu qilgan, qilayotgan ishlaringiz kultura-yu, siz kulturniy xotin bo‘ldingizmi?

X u m o r x o n. Voy, muncha tiling zahar ekan! Bor-e, ering boshingda qolsin! Ol, olib ket!
(*Derazadan tashqariga*.) Tog‘a!

O q i l a. Men er talashib kelganim yo‘q.

X u m o r x o n. O‘shanda nega yig‘lab kelgan eding bo‘lmasa?!

O q i l a. Bundan bir yarim yil burun yig‘lagan edim, Unda bolalarim ko‘chada qoladi deb o‘ylagan ekanman. Yo‘q, tirik yetim bo‘ldi-yu, lekin ko‘chada qolmadni. Bu zamonda hech kim ko‘chada qolmas ekan: zavodda biri onam bo‘ldi, biri akam bo‘ldi — yo‘limni topib oldim. Lekin siz-chi!..

Xumorxon Marasulning orqasiga o‘tadi.

Ie, xotinlardan kaltak yeya berib zada bo‘lib qolibsiz-ku!.. Qo‘rqmang, men sizni urmayman — sizga qo‘l tegizgani hazar qilaman.

X u m o r x o n. Sendan yaxshi ekanmanki, ustingga olipti-da!

O q i l a. Ko‘chada yotgan suyakni qaysi it g‘ajimaydi! (*Chiqadi*.)

M a r a s u l (*ketidan*). Oqilaxon opa, mumkinmi... Bir og‘iz gapim bor... (*Chiqadi*.)

Xumorxon. Voy, yashshamay o‘lgur...

Hayal o‘tmay, M a r a s u l ro‘molchasi bilan yuz-ko‘zini arta-arta kiradi.

M a r a s u l. Chakki qilding! Yaxshi gapirib hovridan tushirish kerak edi!

X u m o r x o n. Osmon qo‘lida bo‘lsa tashlab yubora qolsin! Ahadjon akamning bitta osmonni

ko‘tarib qolguday obro‘yi bor!

F o t i m a (*derazadan*). Qanaqa erkaksan! Yosh xotinni majlisga yuborib, qandoq sabring chidab o‘tirbsan! Qachongacha o‘rgataman!..

M a r a s u l . Hozir... (*Chiqadi.*)

Rang-quti o‘chgan Zargarov kiradi va sekin kresloga o‘tiradi.

X u m o r x o n . Voy, nima qildi? Shlyapangiz qani?

Rizamat, qo‘lida shlyapa, motamli yurish qilib kiradi.

Z a r g a r o v (*qo‘lidan shlyapani olib*). Boring, Marasulni aytib keling!

R i z a m a t chiqadi.

O’zimning ham ko‘nglimga kelgan edi-ya? Asli bormasam bo‘lar ekan...

X u m o r x o n . Voy, nima balo, Oqila bu yerga kelib qilgan shallaqilagini klubga ham borib qildimi?

Z a r g a r o v (*cho‘chib*). A? Oqila keldimi?

X u m o r x o n . Ha. Sizga povestka olib kelipti. Sizni menga butkul bermoqchi emish.

Zargarov povestkani olib vahima ichida kuz yogurtiradi.

Z a r g a r o v (*garang*). Ie... men «Oqilani qo‘yganim-ga besh yil bo‘lgan» deb... obbo... sudda usgimga xotin oldi desa... (*Birdan*.) Jonim! Payt nozik, xotin-qizlar masalasi chirsillab turipti—bekorga novut bo‘lib ketaman.... Menga rahm qiling!..

X u m o r x o n . Nima qilay?

Z a r g a r o v . Sizdan bir og‘iz so‘z!.. Bir og‘iz!.. «Men Zargarovning xotini emasman, o‘ynashiman» desangiz qutulib ketaman. Xotinlik erkak o‘ynash tutmasin degay zakon yo‘q! Yo‘q!

X u m o r x o n . Ie!

Z a r g a r o v (*tiz cho‘kib*). Jonim!..

X u m o r x o n . Men bu gapni aytgani nomus qilamay. Xo‘ja avlodimiz, bizning avlodda o‘ynash tutgan xotin o‘tgan emas!

Z a r g a r o v . Jonim! Imonim!

X u m o r x o n . Muncha!.. Joningizni oladimi!..

Z a r g a r o v . Obro‘yim to‘kiladi... Mening obro‘yim bir o‘zimga emas, sizga, o‘zingizga ham kerak-ku, axir!

X u m o r x o n . Sizning obro‘yingiz menga kerak bo‘lib nima qilib beripti!.. Bittayu bitta tog‘am hali ham zavxoz!

Z a r g a r o v . Bu to‘g‘rida gaplashgan edik-ku... Bir oz ichadi!

X u m o r x o n . Kattaroq ish bo‘lsa — yaqiniga odam yo‘lolmasa ichgani ham bilinmas edi.

Z a r g a r o v . Xo‘p, katta ishga joylab qo‘yaman. Bo‘ldimi?

X u m o r x o n (*o‘ylab turib*). Tog‘amga durustroq joydan xotin olib berasiz. Yaxshi qiz bo‘lsin!

Z a r g a r o v . Xo‘p, o‘zim ham shuni o‘ylab yurgan edim. Uylaymiz, bu hovlini tog‘angizga berib, o‘zimizga boshqa bahavoroq joydan uchastka qilamiz!

Rizamat bilan Marasul kiradi.

M a r a s u l . E-e, Ahadjon aka, rostmi? Xayriyat majlisga Oqilaning o‘zi kirib bormapti.

Z a r g a r o v (*Rizamatga*). Siz choy-poy ichib olasizmi?..

X u m o r x o n (*Rizamatga*). Bu yoqqa yuring... .

Rizamat ikkovi chiqib ketadi.

M a r a s u l. Nima bo‘ldi?

Z a r g a r o v. Dard bo‘ldi! Balo bo‘ldi! Hamma illat senda! Senda! Xotin-qizlar masalasi chirsillab turgan bir vaqtida nima qilar eding gapni ko‘paytirib!..

M a r a s u l (*hayron*). Nima qildim?

Z a r g a r o v. Ie, tag‘in nima qildim deydi-ya!.. Xotining o‘qiymen desa bitta-yarimta maktabga qistirib qo‘ymaysanmi-yu, yana bitta tuqqanidan keyin o‘zi tashlab ketmaydimi?

M a r a s u l (*quti o ‘chib*). Nima bo‘ldi?

Z a r g a r o v. Hamma gap mana shundan boshlandi-da! Dugonasi chiqib undoq dedi, xolang chiqib bundoq dedi: hammasi qo‘shilishib seni olib menga urdi, meni olib senga urdi. Danakday xamirturushdan bir tog‘ora xamir qildi-qo‘ydi.

M a r a s u l. O’zi nima dedi?

Z a r g a r o v. Nima derdi! Tarafingni olsam meni yolg‘onchi qildi!

M a r a s u l. Hali shunaqami. (*Yengini shimarib chiqmoqchi bo ‘ladi*.)

Z a r g a r o v. Qayoqqa?.. O’tir! (*Uning yenglarini tushirib qo ‘yadi*.)

N a s i b a kiradi.

N a s i b a. Meni yo‘qladingizmi?

Zargarov Marasulga «qattiq gapirma» deb ishora qiladi.

M a r a s u l (*qovog ‘ini solib*). Ha!.. (*Uning oldiga boradi*.)

Marasul Nasibani urmoqchi bo‘lganda Zargarov hay-haylab qo‘ymaydi. Shovqinni eshitib Xumorxon yugurib chiqadi, vaziyatni ko‘rib hayron bo‘ladi.

Z a r g a r o v. Hm... Shunaqa ekan-da, Nasibaxon... Marasuldan xafaroq ekansiz, menga aystsangiz ham bo‘lar edi-ku... yo mendan ham xafamidingiz?

N a s i b a. Qoqingan odam yo‘lda yotgan toshdan o‘pkalamaydi.

Z a r g a r o v. Meni tosh deysizmi, g‘isht deysizmi, kesak deysizmi, har qalay xolis niyat bilan oralaringga tushgan edim... I... baxtli bo‘ldingiz degan qanoatda-man: shundoq uyingiz bor, joyingiz bor...

N a s i b a (*Xumorxonga ko ‘z qiri bilan qarab*). Uy-joy baxt bo‘lsa issiq og‘ilda kavsh qaytarib yotgan sigirdan baxtliroq jonivor bo‘lmas edi!

Z a r g a r o v. Uy deyishdan maqsad — oila demoqchiman!

X u m o r x o n. Opasi o‘rgilsin, nega unaqa deysiz, kimsan doktor Huzurjonovning xotinisiz!

N a s i b a. Falonchining xotini bo‘lish sizga baxt bo‘lsa bordir, lekin men buni baxt deb bilmayman, bunaqa baxtdan jirkamanan! Mening o‘z otim, ota-onam umid bilan qo‘ygan otim bor! O‘z otimga kuydirgi chiqqan emas!

M a r a s u l. (do‘q *qilib*). Shunaqami?!

N a s i b a. Ha, shunaqa!

M a r a s u l. Ha, o‘sha seni... (*Urmoqchi bo ‘ladi*. Zargarov oraga tushadi.) Jag‘ingni ezaman!

N a s i b a. Yo‘q. Marasul aka, endi meni urolmaysiz! Men endi munglik, mushtipar xotin emasman. (*Chiqib ketadi*.)

X u m o r x o n. Voy, Marasul aka-ey, o‘lmanan joningiz! Bu shallaqi bilan qanaqa umr qilib kelayotibisz?

Z a r g a r o v. Ahmoq! Ahmoq!! Hozir xotin uradigan zamonmi?

X u m o r x o n. Bunaqa xotinni urib o‘ldirsa ham oz! (*Chiqadi.*)

Telefon jiringlaydi.

Z a r g a r o v (*cho ‘chib*). Marasul, ol-chi! (*O’zicha.*) E, xudo!.. (*Panoh istab.*) Xumorxon!
M a r a s u l (*trubkaga*). Labbay! A? Hozir...

Marasul imo bilan Zargarovga trubkani ko‘rsatadi. Zargarov trubka xuddi chaqib oladiganday stol yoniga keladi, trubkani oladi.

Z a r g a r o v (*trubkaga, o ‘zini xursand ko ‘rsatishga tirishib*). Labbay... Rahmat... A? Xo‘p-xo‘p...
(*Bo ‘shaishb o ‘zini kresloga tashlaydi, uzoq pauzadan keyin.*) Marasul!..

M a r a s u l (*zo ‘rg ‘a*). Labbay!..

Z a r g a r o v. Nima bo‘layotipti o‘zi?

M a r a s u l, Endi bu yog‘i nima bo‘ladi deng.

Z a r g a r o v. Xumorxon! Jonim!

P a r d a

TO’RTINCHI PARDA

YETTINCHI KO’RINISH

Marasulning hovlisi. Supada Nazira, Vera, Nasiba, Po‘latjon Domla.

P o‘ l a t j o n D o m l a (*bolaning yuzini ochib sekin*). Bay-bay-bay!.. Muncha ham shirin uxlapti!
Menga ber-chi, bola ko‘tarish esimda bormikin...

Qizlar sekin kulishadi, Nasiba bolani unga beradi.

Uho‘!.. Polvon qiz bo‘ladiganga o‘xshaydi-ku! Barakalla. Xo‘p, qani, gapir-chi!..

N a s i b a. O’sha kungi majlisdan keyin yaxshi bo‘lib qoldi. Majlis kuni bir avj qildi-yu, keyin o‘ylab ko‘rdi shekilli, darrov tushdi. Xiyla tushdi! Bir yilda bir martaba ham ko‘chaga chiqarmagan odam... mana, bir hafta ichida ikki marta maorif bo‘limiga borib keldim. O‘zi mifikimizga borib to‘qqizinchisinfda o‘qiganimga sprawka olib keldi...

N a z i r a. Yomon bo‘lib ham ko‘rsin-chi klub devoriy gazetasiga oyog‘idan osib qo‘yarman!

V ye r a. Majlisda osgandan besh battar qildik-ku.

P o‘ l a t j o n D o m l a. Qollektiv zo‘r kuch!

Bidon ko‘tarib Fotima kiradi, mehmonlarni ko‘rib bidonni sekin bir chekkaga yashiradi va yugurib bularning oldiga keladi.

F o t i m a. Voy gиргиттон!.. Keling, domlasi... Kelinglar... Bu o‘qish qachon boshlanadi-a, domlasi?
Bola bechora ichikib qoldi-ku! Uyda ham o‘qiyotipti, o‘qimagan kitobi qolmadi, Marasul kitob yetkizolmayotipti-yu, lekin maktabning yo‘rig‘i boshqa-da! A, kelinposhsha?

N a s i b a. Voy, aya, suyunchi! Meni o‘ninchisinfga qabul qilishi! Po‘latjon Domla buyruq olib

keldilar.

R o h i l a. Umridan baraka topsin, zap domlang bor-da!

Ikkovi chiqadi. Marasul kiradi, kelib so‘riga o‘zini tashlaydi. Fotima kiradi.

F o t i m a. Ie, qeldingmi... Ovqatingni olib kelaymi?

M a r a s u l. Yo‘q! Tomog‘imdan hech narsa o‘tmaydi, Ahadjon akamni ishdan olib, partiyadan o‘chirishipti!

F o t i m a. Voy!..

M a r a s u l. Uf!.. Bir omad ketgandan keyin shunaqa bo‘lar ekan-da!

F o t i m a. Xudo begin!.. Tashvish tortma, Ahadjon tegirmonga tushsa butun chiqadi... Mana ko‘rasan, onam aytgan edi dersan! (*Sekin.*) Nasibaning domlasi qog‘oz olib keldi!

M a r a s u l. Qanaqa qog‘oz?

F o t i m a. O‘qishga kirishi naqdga o‘xshaydi. (*Yig‘lamsirab.*) Peshonam qursin... Seni katta qilib bergenim kam ekan, endi bolasini ham katta qilib beraman, shekilli.

Z a r g a r o v (*o‘z hovlisi tomonidan kiradi, musibatli tovush bilan*). Marasul, uka, men ketdim. Endi butun umid oblastdagi yor-birodarlardan. Xayr...

M a r a s u l. Xayr...

F o t i m a. Xudo deng!

Z a r g a r o v (*jon-dili bilan*). E, xudo! (*Chiqadi.*)

N a s i b a kiradi.

F o t i m a. Kelinposhsha, eringizning ovqatini bering. (*Chiqadi.*)

M a r a s u l.. Qayoqqa boarding?

N a s i b a. Hech qayoqqa borganim yo‘q.

M a r a s u l. Qim keldi?

N a s i b a. Po‘latjon Domla, qizlar...

M a r a s u l. Shunaqami?..

N a s i b a. (*xursand.*) O‘ninchiga kiraman! Po‘latjon Domla direktsiya bilan gaplashib buyruq olib keliptilar! Mana!

M a r a s u l (*buyruqni o‘qiydi*). Hmm... yaxshi, lekin men bir narsani o‘ylab qoldim: bolangni nima qilasan?

N a s i b a. Hamisha «bolang, bolang» deysiz... (*Kulib.*) Nima, bolani onamning uyidan olib kelibmanmi? ..

M a r a s u l. Mening onamdan umid qilma demoqchiman. Senga meni katta qilib bergani basdir, endi bolangni ham katta qilib bersinmi!

N a s i b a (*hayron*). Mayli....yasli bor...

M a r a s u l. Tilab-tilab topgan bolangni yasliga bergani qandoq ko‘ngling bo‘ladi?

N a s i b a. Yasliga nima qipti? Mening o‘zim ham yaslida, bog‘chada o‘sganman.

Marasul. Sening onang bersa bergandir, mening yasliga beradigan bolam yo‘q!

N a s i b a (*quri o‘chib*). Xo‘p, bolaga mening onam qaraydi... Qechqurun eltib beraman, ertalab olib kelaman...

M a r a s u l. Bu boshqa gap. (*Birdan.*) Xo‘p, bolani onangga eltib berar ekansan, meni kimga eltib berasan? Menga kim qaraydi?

N a s i b a. O‘zim qarayman... Onam qaraydi... O‘qishimning sizga, uy ishiga... hech kimga og‘irligi tushmaydi.

M a r a s u l (*pauzadan keyin*). Menga qara, o‘qishdan maqsad nima o‘zi, ishslashmi? Nima qilasan ishlab? Men boqolmayapmanmi?

N a s i b a. Marasul aka, nima uchun meni «boqishingiz» kerak? Men mushuk bo‘lmasam...

M a r a s u l (*achchig‘i kelib*). Biz er-xotin gaplashayotipmiz, oraga birovning gapini qistirma!

N a s i b a. Nima dedim? Qimning gapini qistirdim?

M a r a s u l (*masxara qilib*). «Nima uchun meni boqishingiz kerak! Men mushukmi?..» Bu anavi chol Po‘latjon Domlaning gapi! Bunaqa falsafalar o‘shandan chiqadi!

N a s i b a. Mayli-da. Biron orzusi bo‘lmagan, biron narsaga intilmagan odamning mushukdan nima farqi bor?

M a r a s u l. Xo‘p, bordi-yu, orzulari ushaldi — o‘qidilar, bitirdilar, ishga ham kirdilar — ishlab qancha oylik oladilar?

N a s i b a (*uning astiga qarab*). Qancha oylik olsam o‘qishimga rozi bo‘lar edingiz?

M a r a s u l (*nima deyishini bilolmay*). Yuragimni siqma! (*Qog‘ozni yirtib tashlaydi*). Yanagi yilga o‘qiysan!

N a s i b a. Voy! (*Qog‘oz parchalarini olib bag‘riga bosadi*.) Marasul aka, nega bunaqa qilasiz? Har kuni ikki mahal gul ko‘tarib ko‘chamizning boshida turgan kunlaringizda nimalarni va’da qilgan edingiz?

M a r a s u l (*birdan tutoqib*). Men ishdan charchab kelganman, dam olgani qo‘yananmi, yo‘qmi? (*Baqirib*.) Qo‘yananmi, yo‘qmi!!!

N a s i b a. Baqirmang!

R o h i l a bilan F o t i m a yugurnb kiradi.

R o h i l a. Ha, ha, yana nima bo‘ldi?

F o t i m a. Hoy, senga nima bo‘ldi?

N a s i b a. Kechagina nima degan edingiz! Yana lafzing‘izdan qaytdingizmi? Noinsof!

M a r a s u l. Ha! Men shunaqa noinsof, shunaqa zolim erman! (*Bir qo‘l harakati bilan butun davlatini ko‘rsatib*). Shunaqa zolim er bo‘lsa hamma ham tegar edi!

N a s i b a. Ola qoling!

M a r a s u l (*baqirib*). Olaman!

R o h i l a. Hoy kuyov, yana boshidan tushdingizmi? Ko‘chada muqovangizni ko‘rgan kishi sizni hech shunaqa odam deb o‘ylamaydi-ya!

M a r a s u l. Kechki maktabga qo‘ymayman! Marhamat, universitetga kirsin! Yordam qilaman!

N a s i b a. Bas! Qalbaki gaplaringiz jonimga tegdi! Ko‘r hassasini bir marta yo‘qotadi.

M a r a s u l. Joningga tekkan bo‘lsa — katta ko‘cha!

N a s i b a. Shunaqami?.. Aya, mana, orzularingiz ushaldimi?

N a s i b a bilan R o h i l a chiqadi.

F o t i m a. Hoy, aqlingga kuydirgi chiqmagur, bolasi bor, hovlining yarimini bo‘lib oladi-ya!

M a r a s u l. Uf!.. Aya, deyman, bitta xotinni eplash shuncha qiyin, dadam rahmatli sakkiztasini qanaqa eplagan edilar?

F o t i m a. O, onang aylansin Marasul, u zamonda. erkaklarning qamchisidan qon tomar edi! U vaqtda paranji bor edi!

Bola, tugun ko‘tarib Rohila kiradi.

Voydod!.. Meni shundoq qudamdan ayirasanimi?..

R o h i l a. Qo‘ying-e, Fotimabuvi, davlat deb qizimni o‘z qo‘lim bilan o‘tga tashlagan ekanman! Odamlar aytishgan edi...

N a s i b a (*ikki boylam kitob ko‘tarib kiradi*). Yuring, aya!

F o t i m a (*ikkovining yo‘lini to ‘sadi*). *Voydod!*.. Meni shunday kelinimdan ayirasamni?..

Z u h r a kiradi.

Dod ustiga dod!

Z u h r a (*hayron*). Nima gap?

R o h i l a. Nima bo‘lar edi... Aytganingiz keldi!

F o t i m a. (*Zuhra bilan ko‘rishib*.) Ikkovi urishib qoldi, yarashtirib qo‘y. Arzimagan gap... (*Chiqadi*.)

Z u h r a (*ketidan*). Maraz!

M a r a s u l (*Rohilaga o‘pkalab*). Bizni urishib-so‘kib yarashtirib qo‘yarsiz desam, darrov ko‘ch ko‘taribsiz-da!

R o h i l a. Ha! Ko‘zim ochiqligida qizimning to‘yinn ko‘ray deb o‘zimni o‘ylabmanu, bu to‘ydan keyin Nasiba nima bo‘lishini o‘ylamabman. Ona kuni bitib dunyodan ko‘z yumganida boladan rozi bo‘lishi zarur, lekin endi bilsam, kuni tug‘ilib dunyoni endi ko‘radigan bolasini rozi qilib ketishi undan ham zarurroq ekan].

O n a-b o l a chiqmoqchi bo‘ladi.

Z u h r a. Mana endi o‘zingizga kelibsiz!

M a r a s u l (*do ‘q qilib*). Xola!.. Oila masalasiga aralashmang! Oila masalasi nozik masala, siyosiy masala! Sovet hukumati oilani mustahkamlash uchun butun choralarini ko‘rayotgan bir vaqtda... javobgar bo‘lasiz!

Z u h r a. Sovet hukumati har qanaqa oilani emas, sovet oilasini mustahkamlaydi!

M a r a s u l. Sizga o‘xshagan chalasavod «aktivlar» qo‘li bilan mustahkamlaydi! (*Ona-bolaning oldini to ‘sadi*.)

Z u h r a. Men chalasavod, sening savoding rosami? Bir ko‘zing odamlarning tishida, bir ko‘zing cho‘ntagida-ku, yana qaysi ko‘zing bilan o‘qib savod chiqargansan?

M a r a s u l (*Nasibaga*). Chuchvarani xom sanama, mendan yalchib aliman ololmaysan!

N a s i b a . Keragi yo‘q!

Z u h r a. Qonun tovuqday qiyqillatib olib beradi!

M a r a s u l . Qonunga muvofiq oladimi? Oyligi yuz so‘mlik ishga kiraman!

Z u h r a. Hezalak!

M a r a s u l (*Nasibaga*). Esing kirib qaytib kelganingda bu uyda boshqa xotin o‘tirgan bo‘ladi!

N a s i b a (*taqqan ziynat asboblarini olib Marasulning oldiga tashlaydi*). Nainki qaytib kelsam! Aksin-cha, bu yerda o‘tgan bir yarim yil umrimga umr bo‘yi achinaman. Essizgina bir yarim yil umrim! Yuring, aya! (*Chiqadi*.)

R o h i l a. Essiz! Lekin bekor ketmadi! Bu bir maktab bo‘ldi. Ko‘zimiz ochildi. Baxt nima, baxtsizlik nima—ko‘zimiz bilan ko‘rdik. Men onalarga aytaman: «Tuzukkina qanot chiqarmay uchishga talpingan chumchuq-bola ilonning og‘ziga tushar ekan» deyman!

Marasuldan boshqa ha mm a ko‘cha eshigi tomon yo‘naladi.

M a r a s u l (*baqirib*). Xola, murodingga yetdingmi?

Z u h r a. Yo‘q hali, jiyan! Chalasiga qarzdorman! (*Chiqadi*).

Parda

EPILOG

Zargarovning hovlisida o'sha oshxona, lekin yerda yotgan bir poy eski kalish, g'ijimlab tashlangan bir-ikki gazetadan boshqa hech iarsa yo'q. Sakvoyaj ko'targan Zargarov kiradi, kiradi-yu, dong kotib qoladi: ko'zlarini ishqab, yirib qaraydi, nihoyat, ko'rayotgani haqiqat ekaniga ishongach, bo'shashib ketadi. G'am-koyish xiy-lagina yengib qo'ygan Marasul kiradi.

M a r a s u l. Salom berdik... S priezdom...

Z a r g a r o v. Salom...

M a r a s u l. Guzarda orqangizzdan shuncha chaqirdim, eshitmadingiz.

Z a r g a r o v (*uyni ko'rsatib*). Nima gap?

M a r a s u l. Xumorxonningiz... Kechagina ko'chib ketdi. Xafa bo'l mang, hozir hammani ham xotini tashlab ketayotipti. '

Z a r g a r o v. Qayoqqa ko'chdi ekan, tog'asinikigami?

M a r a s u l. Yo'q... Erga tegdi!

Z a r g a r o v. A? (*Sakvoyajning ustiga o'tirib qoladi*.)

M a r a s u l. Tag'in xotin ustiga tekkanini aytmaysizmi!.. Qalay, ishlar to'g'ri bo'ldimi?

Zargarov bosh chayqaydi va sug'urib tashladi deganga ishora qiladi.

Obbo!.. Sug'urib tashlamanglar, tuzalib ketaman demadingizmi?

Z a r g a r o v (*xayoli boshqa yoqda*). Aytdim, aytmagan gapim qolmadi.

M a r a s u l. O'zim ham bilgan edim: katta omburga chap berib bo'l maydi. Turmush qiyin bo'lib qoldi, Ahadjon aka!

Z a r g a r o v. Sen nima qilasan nolib! Omburing qo'lingda, bir kavakdan haydasa, boshqa kavakda tish sug'urib ayshingni qilaverasan! Menga qiyin, menga!

M a r a s u l. Juda ham unchalik emas, Ahadjon aka! Ombur-pomburim bilan o'zimni ham hayotdan sug'urib tashlaydiganga o'xshab qoldi: uchidan hovlini sotib soliqqa berdim, ishdan bo'shatildim, yana nima bo'lishini bilmayman.

Z a r g a r o v. Qani endi shularning hammasi tushim bo'lsa-yu uyg'onib ketsam!.. Qadamimni bilib bosar edim. Shu vaqtgacha kalla deb jun chiqqan qovoqni ko'tarib yurgan ekanman! Jun chiqqan qovoqni!

P a r d a

1954 yil.